

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT” FAKULTETI
“BUXGALTERIYA HISOBİ ” KAFEDRASI**

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
Kafedra mudiri, prof. Xolbekov R.O.

«_____»_____2012yil

Tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar ba ylarning **buxgalteriya
hisobi**
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”
Ilmiy rahbar: kat.o'q. Turkmanov A.S.

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Jyraev Tagiberdi
Nyriddinovich

«_____»_____2012 yil

«_____»_____2012 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hisobining nazariy asoslari	8
1.1. Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning turlari va shakllari.	8
1.2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarida yuridik shaxslarga beriladigan kreditlarni amalga oshirishda kreditlash tamoyillari.	16
1.3. Tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari.	20
2-bob. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni hisobini tashkil etish	26
2.1. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning hujjatlashtirishini tashkil qilish	26
2.2. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning buhgalteriya hisobi ..	31
2.3. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy zahiralarni tuzish va ularning buhgalteriya hisobi	36
3-bob. Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar tahlilini takomillashtirish yo'llari	46
3.1. Ipoteka bankida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari	46
3.2. Ipoteka bankining to'lovga layoqatlilikning mohiyati va asosiy ko'rsatkichlari	60
3.3. Ipoteka banki to'lovga layoqatliligini takomillashtirish yo'llari	72
Xulosa va takliflar	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	78
Ilovalar	85

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning umumiy kapitali, aktivlari va kredit qo'yilmalari, shuningdek, depozit bazasining kattaligi ko'rsatkichlari yaxshilanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu borada Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida uyidagilarni qayd etib o'tdilar:

«2011-yilda banklarning kapitallashuvi, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlashga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining yetarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan uch barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, "Standart end Purs", "Mudis" va "Fitch Reytings" kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda "barqaror" reyting darajasini bermoqda, ayni paytda mamlakatimizning shunday bahoga sazovor bo'lgan banklari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Agar 2010 yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki "barqaror" reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga etdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000 yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011 yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar — yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir»¹.

¹ 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi ("Xalq so'zi" gazetasi, 2012 yil 20 yanvar, №14 (5434))

Bu borada Prezidentimizning «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, «Bank tizimini yanada rivojlantirish va aholining bo'sh turgan mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaror va Farmonlari talablari izchillik bilan amalga oshirish natijasida erishildi.

Ushbu hujjatlar talablari doirasida Ipoteka banki tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bank kreditlaridan foydalanish uchun kredit turlari joriy etildi va quyidagi Nizom hamda qo'llanmalar ishlab chiqildi: «Tijorat banklarida kreditlarning buhgalteriya hisobi tartibi to'g'risidagi» nizom; «Tijorat banklari foizlarni hisoblash to'g'risidagi» nizom; ATIB Ipoteka bankining kredit siyosati; ATIB Ipoteka tizimida kreditlash jarayonini tashkil etish bo'yicha qo'llanma.

Banklar aktivlarining asosini tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar tashkil etmoqda. Respublika bank tizimi mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirish ishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Bu xususda Prezidentimiz "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" kitoblarida "Bankrot deb e'lon qilingan 240 ta korxonadan 86 tasi esa tijorat banklari balansiga o'tkazildi. Bugungi kunda tijorat banklari balansiga o'tkazilgan 70 ta iqtisodiy nochor korxonada ishlab chiqarish to'lik qayta tiklanib, istiqbolli sarmoyadorlarga sotildi"² deb ta'kidlaganlar.

Banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar haqida esa "So'nngi 10 yilda iqtisodiyotning real sektorlarini kreditlashga yo'naltirilgan ichki manbalar 25 barobardan ziyodroq ko'paydi. Natijada banklarning kredit portfeli tarkibi tubdan o'zgardi"³ degan fikrni bildirdilar. Bunda banklar tomonidan yuridik shaxslarga beriladigan kreditlarni yanada kengaytirish va ularni rivojlantirishda buhgalteriya hisobining ham ahamiyati sezilarli darajada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bunda tijorat banklari nafaqat yuridik shaxslarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan

²I. Karimov. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir .2010-yil 38-bet

³I. Karimov. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir .2010-yil 37-bet

natijani buhgalteriya hisobi va monitoring tahlili orqali nazorat qilishni taqozo etadi. Shuningdek, banklarimizning xalqaro miqyosdagi moliyaviy munosabatlari kengayib bormoqda. Jahon banklari va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari chuqurlashmoqda. Shu boisdan, kreditlarni amalga oshirish va ularning buhgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Bu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida yuridik shaxslarga kreditlar berish hisobi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi mazkur diplom ishining dolzarbligini, uning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning buhgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish masalalari ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarning e'tiborida bo'lgan. Xususan, yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni buhgalteriya hisobi va tahlili muammolari bilan Rossiyalik iqtisodchi olimlar Belotserkovskiy B.I, Kamordjanova N. A. Парфёнов K.G, Bank B.R, Козлова Э.П., Nikolaevna Э.N, З.Г.Щиринская, Т.Н.Нецегова, В.И.Колесников, Л.П.Кроливетская, Н.П.Мощченко, Л. Щупаков., В. Barylina Э. В. Marenkov N.L., Ysatova L. B., Seroshtan M. S, Э. В. Arskaya boshqa olimlarning ilmiy ishlanmalari, darsliklari hamda o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topgan.

Ushbu muammolar Respublikamiz olimlaridan A.Ibragimov, N. Jo'raev, A.Qodirov, M. Nurmurodov, Sh.Abdullaeva, S.Norqobilov, Z. Mamatov, I. Murugova, N. Navro'zova, Umarov Z., Muqimov Z. va boshqa olimlarimizning ilmiy va amaliy ishlarida ham o'z ifodasini topgan.

Albatta, yuqoridagi barcha iqtisodchi olimlarimizning ilmiy ishlari, ham nazariy ham uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lsa ham, ular aynan buhgalteriya hisobiga bog'liq bo'lmasada, tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobi va tahlilini tashkil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Biroq, tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini yuritish va ularning tahlilini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil qilishda bozor munosabatlarning chuqurlashuvi hamda mamlakatimiz banklarining jahon iqtisodiyotiga yanada keng integratsiyalashuvi jarayonida vujudga kelayotgan o'zgarishlarning, Respublika kredit bozori va tizimining murakkablashib borayotganligi yuqoridagi olimlarimizning ilmiy ishlarida keltirilgan omillarning inobatga olinmaganligi ko'zga tashlanadi. Shu boisdan, mazkur mavzu bo'yicha diplom ishini olib borish zaruriyati tug'ildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni hisobini to'g'ri yuritish hamda kreditga bo'lgan to'lov qobiliyatini hisoblash va resurslardan maqsadli foydalanishni monitoring tahlil qilishdagi mavjud kamchiliklarni o'rganish, shuningdek, ularni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;
- ATIB Ipoteka bankida_ yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni turkumlash hamda kredit xizmatini amalga oshirishda kreditlash tamoyillarining ta'sirini aniqlash;
- Bugungi kunda ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishning hozirgi holatini tadqiq etish
- ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni hujjatlashtirishga qo'yilgan talablar va ularni buxgalteriya hisobida hisobga olish hamda uni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;
- ATIB Ipoteka bankida amalga oshirilayotgan yuridik shaxslarga berilgan kreditlar tahlilini tashkil qilish metodikasini mukammallashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
- ATIB Ipoteka bankida kredit operatsiyalari bo'yicha ehtimoliy zahiralarni tuzish va ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish;
- ATIB Ipoteka bankida kredit resurslari bazasini shakllantirish yo'llarini tadqiq qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ATIB Ipoteka bank buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlari ma'lumotlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritishni tashkil qilish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilindi;

- ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni turkumlandi hamda kredit operatsiyalarini amalga oshirishda kreditlash tamoyillarining ta'siri aniqlandi;
- ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning buhgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishning hozirgi holati tadqiq etildi;
- ATIB Ipoteka bankida tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni hujjatlashtirishga qo'yilgan talablar o'rganildi va ularni buhgalteriya hisobida hisobga olish hamda uni takomillashtirish yuzasidan nazariy va amaliy ahamiyatga ega takliflar berildi;
- ATIB Ipoteka bankida amalga oshirilayotgan yuridik shaxslarga kreditlar berish faoliyatining tahlilini tashkil qilish metodikasini mukammallashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi;
- ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy zahiralarni tuzish va ularning tahlili tashkil qilish bo'yicha fikrlar bildirildi;
- ATIB Ipoteka bankida kredit resurslari bazasini shakllantirish muammolari tadqiq qilindi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda bildirilgan fikr-mulohazalar tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarining buhgalteriya hisobini takomillashtirishga nazariy jihatdan ko'mak beradi. Bu o'z navbatida, buhgalteriya hisobini yuritishda ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va monitoring tahlil qilishda zaruriy axborotlar bilan ta'minlaydi hamda tijorat banklarining moliyaviy faoliyat jarayonlarining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi . Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

1-Bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hisobining nazariy asoslari

1.1.Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning turlari va shakllari

Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari bo'sh turgan pul mablag'lari hajmi orta boshlaydi. Bo'sh turgan pul mablaglaridan samarali foydalanishga intilish bank tizimi va kredit munosabatlarining paydo bo'lishiga hamda rivojlanishiga turtki bo'ldi.


Kredit (lotincha «creditum» - kredit degan ma'noni anglatadi.) deganda ma'lum miqdordagi pul mablag'ini muayyan shartlar va kredit tamoyillari asosida kelishilgan muddatga bank tomonidan mijozga berilishi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, qarzdor qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berishi va undan tashqari ma'lum summani to'lashi lozim. Bu summa qarzga olingan mablag'lar uchun «to'lov bahosi» bo'lib, u kredit uchun foiz deb ataladi. Odatda, zamonaviy bank kreditni pul shaklida kreditga beradi.

Ipoteka bank o'z mablag'laridan tashqari mijozlarning ham pulini jamlab uni o'z nomidan kreditga beradi. Bu yerda kredit munosabati ikki sub'ekt o'rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi (kreditor) va ikkinchisi, pulga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi (qarzdor)⁴. Bank mijozlardan olgan omonatlarni qaytarishni ham, ularga kreditlarning to'liq miqdorini bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq berishni ham kafolatlashi zarur bo'ladi.

“Ayni paytda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdir. Bu esa ushbu mablag'larni ishonchli himoya qilish hamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi”⁵. Bu yerda kredit munosabati ikki sub'ekt o'rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi (kreditor) va ikkinchisi,

⁴ Yo. Abdullayev v.b. Bank ishi. o'quv qo'llanma. 307-bet

⁵ I. Karimov. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». 28-bet



1-chizma. Kredit munosabatlarining unsurlari

pulga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi (qarzdor).

Kredit sub'ektlari har xil, bularga turli mulkchilik shakliga ega yuridik shaxslar kiradi.

Kreditning ob'ekti har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo'lgan puldir.

Bo'sh pul mablag'I uch xil bo'ladi:

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo'lidagi pul, ya'ni pul kapitali;
- aholi qo'lidagi pul – ertami kechmi ehtiyojni qondirish uchun to'plangan pul, egasi qo'lida kapital emas, balki iste'molini qondirish vositasi;
- davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (davlat korxonasi uchun), ham umumiy iste'mol pulidir.

Aytilgan turdagi bo'sh pullar kredit (qarz) fondini tashkil etadi.

Qarzga berilgan pul, ya'ni kredit harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:



2-chizma. Kredit harakati.

Bunda:

K_b – kredit berildi;

K_o – kredit olindi;

K_i – kredit ishlatildi;

K_{fq} – kredit foiz (%) bilan qaytarildi.

Kredit to'rt xil funktsiyani bajaradi⁶:

Birinchidan, pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (masalan, chek, sertifikat va b.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik aylanmasiga jalb qiladi. (chek – bankdagi pulni talab qiluvchi hujjat, sertifikat – pul to'langanligi, qarz berilganligini tasdiqlovchi hujjat). Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga chek, kredit kartochohalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni naqd pulsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Ikkinchidan, qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini ta'minlaydi. Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, shaxsiy va davlat sektorining bo'sh pul mablag'lari, daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga muayyan to'lov asosida beriladi.

Bu funktsiya yordamida ishlab chiqarishdagi mutanosibliklar (proportsiyalar) va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

Uchinchidan, qarz berish tufayli muomala xarajatlarini tejash imkoniyati tug'iladi. Ma'lumki, kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullar (oltin, kumush) o'rnini kredit pullari – banknotalar, cheklar bajarib kelgan. Ayniqsa, oltin (kumush)ning monetar roli va uning yo'qolib borganligi tufayli kreditning bu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, uning tezkorligi va kam xarajatliligini ta'minlab kelmoqda.

Bu funktsiya kredit kapitaliga aylangan qarzning muomalada bo'lish vaqtining tejalishi uning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtini oshiradi va ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi. Xo'jalik sub'ektlari pul mablag'larining kelib tushishi va ishlatilishi o'rtasidagi vaqt bo'yicha farq faqatgina ortiqcha mablag'lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag'larning etishmovchiligini ham aniqlab beradi. Shu sababli korxona va tashkilotlarning o'z aylanma

⁶ Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. – М.: ФОРУМ, 2010. с. 124

mablag'larining vaqtinchalik etishmovchiligini to'ldirish uchun kreditlarni olishi keng tarqalib boryapti.

To'rtinchidan, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga erishiladi. Masalan, bank krediti hisobidan qurilayotgan qo'shma yoki xorijiy korxonalar respublikaning va jahon bozorining ehtiyojini qondirsa, bu hol kreditning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi funksiyasining ijobiy amal qilganligidan dalolat beradi. Aksincha, kredit xalq xo'jaligiga turli yo'llar bilan asossiz ravishda ko'p berilsa va oqibatda pul massasi ko'payib, milliy pul qadrsizlansa yoki olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanilmasa va mamlakat o'zining boshqa daromad manbalari, masalan, oltinini sotish hisobidan kreditni qaytarsa, bu hol kredit funksiyasining salbiy amal qilganligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida kreditlarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi⁷. Shunday bo'lsa ham eng ko'p uchraydigan bank kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirish mumkin.

Bank kredit muddati⁸ bo'yicha qisqa va uzoq muddatli bo'linadi. Kreditlarning bu mezonini turli mamlakatlarda turlicha farqlanadi. (1-jadvalga qarang)

1-jadval.

Qaytarish muddati bo'yicha kreditlarni tasniflash⁹

Muddati bo'yicha	Rossiya	AQSh	Buyuk-Britaniya	Fransiya	O'zbekiston
Qisqa muddatli	1 yilgacha	1 yilgacha	3 yilgacha	1 yilgacha	1 yilgacha
Uzoq muddatli	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	10 yildan ortiq	7 yildan ortiq	3 yildan ortiq

⁷ Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 .с. 312

⁸ Sh.Abdullayeva. Bank ishi. O'quv qo'llanma. 62-bet

⁹ Ендовицкий Д.А. Учет ценных бумаг: Учебное пособ.- 2-е изд стер.- М.: КНОРУС, 2009.с. 135

Tadqiqotimiz ob'ekti, bo'lgan ATIB Ipoteka bankida qisqa muddatli va uzoq muddatli kredit berish keng yo'lga qo'yilgan.

Qisqa muddatli kredit berishda kreditlar bir necha oydan bir yilgacha bo'lgan muddatda beriladi. Bu turdagi kreditlar:

- aylanma kapitalni to'ldiruvchi;
- qurilish maqsadida olinadigan «oraliq»;
- o'z aktivlari hisobidan ta'minlovchi (debitorlik qarzlari, faktoring va tovar-moddiy zaxiralari bilan ta'minlangan) kreditlar deb yuritiladi.

Uzoq muddatli kreditlar asosan asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq sohalarni ta'minlashga ishlatiladi. Xususan, bu kreditlar:

- Qayta tiklash maqsadida kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- Harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va takomillashtirish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- Yangi qurilish va qo'shimcha yuqori samarali tadbirlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- Yangi fan, ilmiy texnika sohasida tadqiqotlar olib borish va yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy qilish va boshqalar uchun ajratiladi.

Muddati o'tgan kreditlar (aktivlar) – qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko'zda tutilgan to'lash shartlari va jadvali buzilgan hamda asosiy qarz va unga doir foizlarning navbatdagi to'lovi to'lov muddati yetib kelganidan so'ng to'lanmagan kreditlar.

Restrukturizatsiya qilingan kreditlar (aktivlar) – qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan kreditlar. Agarda bank tomonidan quyidagi amallarning hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, kreditlar (aktivlar) restrukturizatsiyalangan hisoblanadi:

- foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;
- jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechilishi;
- kreditni to'lash muddatining kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;

- foizlarga doir to'lovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish;
- oddiy sharoitlarda qarzdorga berilmay, balki kreditni restrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bo'lgan boshqa yon berishlar.

O'stirilmaydigan kreditlar (aktivlar) – belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar (aktivlar).

Taminlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi. Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli deb ham ataladi. Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchiniig obro'sini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholashdan so'ngina beriladi. Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo'yicha kreditning qaytmaslik xatari yuqori bo'ladi.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar – qimmatli qog'ozlar bozorida baholanadigan mulk yoki kreditning asosiy summasi va unga doir foizlarni to'liq qoplash imkonini beradigan miqdorda bank depozitlari ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan kreditlar.

Qisman ta'minlangan kreditlar (aktivlar) – «yaxshi ta'minlangan kreditlar (aktivlar)» mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minotga ega kreditlar. Xususan, ularga doir taqdim etilgan garov qiymati kredit summasi va unga doir foizlarning 100 foizidan, shuningdek, garovni sotishda ko'zda tutilayotgan xarajatlardan kam (e'lon qilingan garov qiymatidan qat'iy nazar) yoki e'lon qilingan qiymat bo'yicha garovning sotilishi shubha tug'diradigan kreditlar.

Ta'minlanmagan kreditlar (aktivlar) – biror-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar. Odatda, bunday kreditlar qarzdorning kuchli tushumlari potentsiali yoki uning yaxshi kredit tarixi asosida beriladi. «Ta'minlanmagan kreditlar»ga garov belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar ham kiradi.

Ipoteka banki kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlarini bo'yicha tasniflanishi mumkin: Kreditlarini oluvchilari bo'lib hukumat, boshqa banklar, yuridik shaxslar, turli moliya tashkilotlari hisoblanadi.

Kreditlar maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsion, tadbirkorlik va boshqa kreditlarga bo'linadi.

Ipoteka bankining kreditlari ishlatilishi sohasi bo'yicha 2 xil bo'lishi mumkin: asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalashtirish uchun kreditlar beriladi. Bular o'z navbatida ishlab chiqarish yoki muomala sohasiga yo'naltiriladigan kreditlarga bo'linadi. Hajmi bo'yicha kreditlar katta va kichiklarga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda bu kreditlarni belgi bo'yicha yagona o'lchov yo'q. XVF, YTTBning nuqtai nazaridan 10000 AQSh dollarigacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

Berilish usullari bo'yicha kreditlar, qoplash uchun va to'lov kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisobvarag'iga xarajatlarni qoplash uchun o'tkaziladi. Bunda yana avans xarakteridagi kredit mablag'larini o'tkazilishi ham nazarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank krediti bevosita naqd pulsiz hisob-kitoblarda hisob hujjatlarini to'lash uchun beriladi.

Shu bilan birga, bir martalik kreditlar ham bo'ladi, ya'ni shartnomada belgilangan muddat va miqdorda taqdim etiladi. Biroq ko'pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

Bank kreditlarini qaytarilish tartibi bo'yicha 2 guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga bir vaqtda qaytariladigan kreditlar, ikkinchi guruhga bir necha muddatda bo'lib-bo'lib to'lanadigan kreditlar kiradi. Odatda yuridik shaxslar va aholiga joriy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari kerak bo'lganda beriladigan qisqa muddatli kreditlar, bir vaqtda qaytariladigan kreditlar hisoblanadi. Bu yerda asosiy qarz va foizlarni yagona summada kredit muddati tugashi bilan qaytariladi. Bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar- bu ikki yoki undan ortiq to'lovlar bilan amalga oshiriladigan kreditlar hisoblanadi. Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq schyot bo'yicha, lizing, faktoring, forfeyting va boshqalar kiradi.

Foiz stavkalarining turlari bo'yicha bank kreditlarini 2 turga bo'lish mumkin: qat'iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlar. Kreditlar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko'rib chiqilmaydigan qat'iy foiz stavkalari shartlarida berilishi mumkin. Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorlarida konyuktura o'zgarigiiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o'zgarimas kelishilgan stavkada foiz to'laydi. Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkala tomon ham berilgan kreditdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z daromad va xarajatlarini to'g'ri hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz

stavkalari odatda qisqa muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalarining har ikkalasi ham keng qo'llanilmoqda. Suzib yuruvchi foiz stavkalari- bu kredit bozorlarida vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaradigan foiz stavkalaridir.

Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlarga bo'linadi. Odatda t ijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berishi mumkin.

Kreditlar soni bo'yicha kreditlar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin: yagona bank beradigan kreditlar, sindikatlashgan kreditlar, parallel kreditlar.

2-jadval.

Kredit turlari

№	Turkumlash belgilari	Kredit turlari
1	Kredit berish muddatiga qarab	Qisqa muddatli kredit (1 yilgacha) O'rta muddatli kredit (1 – 3 yilgacha) Uzoq muddatli kredit (3 va undan yuqori)
2	Kreditlash ob'ektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab	Tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar Ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o'zlashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar) uchun beriladigan kreditlar Hisob-kitoblar uchun beriladigan kreditlar
3	To'lash muddatiga qarab	Muddatli kreditlar Muddati kechiktirilgan (prolongatsiya qi-lingan) kreditlar Muddati o'tib ketgan kreditlar
4	Kreditni to'lash manbalariga qarab	Qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan kreditlar Grant mablag'lar hisobidan Yangi kreditlarni jalb qilish hisobidan
5	Ta'minlanganlik darajasiga qarab	Bevosita to'g'ri ta'minlangan kreditlar Bilvosita (biror korxona va tashkilot hi-sobidan) ta'minlangan kreditlar Ta'minlangan kreditlar
6	To'langan foiz darajasiga qarab	O'rtacha (me'yorli) foizli stavka Yuqori foizli stavkadagi kreditlar Past foizli stavkadagi kreditlar Foizsiz kreditlar

Biroq ayrim mamlakatlar va integratsion guruhlar iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatiga qarab yagona bank imkoniyati yetmaydigan yirik kreditlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa banklarning guruhlarga qo'shilib sindikatlashgan kredit berishga undamoqda.

Sindikatlashgan kredit - bu birlashgan 2 yoki undan ortiq kreditorlar bir qarzdorga kredit taqdim etadigan kredit¹⁰. Bir guruh bank-kreditorlar ma'lum muddatga bo'sh turgan moliyaviy resurslarini ma'lum bir ob'ekt yoki qarzdorni kreditlash maqsadida birlashtiradi. Bir yoki yetakchi bank-koordinatorlarning katta bo'lmagan bir guruhi butun sindikat nomidan qarz oluvchi bilan kredit bitimi shartlari bo'yicha muzokaralar olib boradi, kerakli summa yig'ishini ta'minlaydi. Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlari ham bo'lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o'laroq, bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi, so'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar.

Shunday qilib, Ipoteka bankining kreditlari qaysi belgilarga karab tasniflanmasin, ularni berishdan maqsad mijozning mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirgan holda bankka yuqori daromad keltirishini ta'minlashdan iborat.

1.2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarida yuridik shaxslarga beriladigan kreditlarni amalga oshirishda kreditlash tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit berish Ipoteka banki tomonidan «Fuqarolik Kodeksi», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni va

«Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risida»gi hamda «Tijorat banklari foizlarni hisoblash to'g'risida»gi Nizomlar asosida, shuningdek, «Markaziy bank tomonidan ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish to'g'risida»gi, «Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida»gi, «Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida»gi me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Kreditlar O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonuniga asosan kredit o'z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs

¹⁰ Воронин В.П. и др. Учет ценных бумаг: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. с. 231

huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga beriladi¹¹.

Ipoteka banki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, shartnoma asosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradilar. Kredit mijozning hisob-kitob hisobvarag'i joylashgan bankda beriladi. Ba'zan mijozning asosiy hisobvarag'i boshqa bankda bo'lgan holatlarda kredit berish uchun ikkilamchi hisobvaraq ochiladi.

Zarar ko'rib ishlaydigan, noliqvid balansga ega bo'lgan va sifati va bahosi yuqoriligi sababli tayyor mahsulotining salmoqli miqdordagi noliqvid zaxirasi mavjud bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan kreditlar esa belgilangan tartibda muddatidan ilgari undirib olinadi¹². Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy nobarqarorlik, xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l ko'yilmaydi. Qisqa muddatli kreditlar amal qilish muddati 12 oydan oshmaydigan kreditlar bo'lib, uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati, ularning qoplanishi va mijozning davlat dasturiga kiritilgan sohalaridagi faoliyat olib borishi shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli kreditlar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi.

Kredit va kreditlashning o'ziga xos qoidalari borki, ular maxsus tamoyillarda ifoda etiladi. Bular:

- kreditning qaytuvchanligi;
- kreditning muddatliligi;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kreditning maqsadliligi;
- kreditning to'loviligi;
- differentsial yondashuv.

Kreditning qaytuvchanligi tamoyili. Ya'ni kreditni qaytarib berish shart. Qaytarib berish ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir. Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kreditorga ko'chirishida

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonuni.-T.: 1996 y.

¹² ATIB Ipoteka bankida kreditlash jarayonini tashkil etish bo'yicha qo'llanma. 2012-yil.3-bet

namoyon bo'ladi. Aynan shu yo'l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar.

Kreditning muddatliligi. Kredit ma'lum muddat uchun beriladi. Bankdan qarz olinganda, albatta, uning qanday muddatda berilishi kredit bitimida kelishib olinadi.

Kredit bitimi bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, unda kreditning qanday muddatga berilganligi, kredit uchun qanday haq to'lanishi va kreditni qaytarish kafolatlari qayd etiladi.

Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, bunda qarz oluvchining kreditor oldidagi ishonchliligi tasdiqlanadi va yana takror qarz olish imkoniyati ta'minlanadi.

Kreditning muddatliligi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi qarz beruvchining qarz oluvchiga nisbatan iqtisodiy jazo choralari (jarima shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo'llashi mumkin. Kreditning muddatliligi:

- kredit ishlatilib, uning pulga aylanish davriga;
- kelib tushuvchi mablag'larning tejamli va qayta ishlatish muddatiga;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish muddatiga;
- tovarlarni sotish muddatiga;
- aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog'liq.

Kreditning ta'minlanganligi. Bu tamoyil vositasida pul massasi (qiymat) va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) o'rtasidagi zaruriy mutanosiblik (proportsiyalar)ning bir me'yorda bo'lishi ta'minlanadi. Ya'ni bunda xo'jalik aylanma mablag'larida ishtirok etuvchi bank mablag'larning har bir so'miga tovar-moddiy boyliklarning bir so'mi qarama-qarshi turishi talab etiladi.

Boshqacha qilib aytganda, banklar tomonidan beriladigan kreditlar tovar moddiy boyliklar va ma'lum xarajatlar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka

qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu o'z navbatida, bankning likvidligiga va pul muomalasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar-moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'minot kredit qaytmay qolgan paytlarda, uning qaytarilishini qoplash asosi hisoblanadi.

Kreditning maqsadliligi. Ya'ni olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda kredit muayyan aniq ob'ektga:

- ishlab chiqarish xarajatlariga;
- ishlab chiqarish zaxiralariga;
- tayyor mahsulotga;
- jo'natilgan tovarlar va hokazolarga beriladi.

Bunda aniq xo'jalik jarayonlarining kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditni mijoz tomonidan maqsadli yo'naltirilishi tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashni ko'zda tutadi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish ob'ektlari va asbob-uskunalarini sotib olish uchun beriladi. Kreditlar fakat asoslangan va real tuzilgan biznes-reja asosida beriladi. Kreditning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash uning o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga rioya qilish Ipoteka banki tomonidan qarz oluvchi korxonalarning hisobotlari asosida nazorat qilinadi.

Kreditning to'lovliligi. Ya'ni, kredit uchun haq to'lash zarurligi, bank qarzni tekinga bermaydi, buning uchun qarz oluvchidan foiz undiradi. Uning miqdori berilgan qarzga nisbatan foiz hisobida belgilanadi. Foiz kreditning bahosi bo'lish birga kreditdan foydalangani uchun to'lanadigan haqdir.

Demak, kreditning to'lovliligi uning to'liq summada o'z egasiga qaytarilishigina emas, shu bilan bir qatorda kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning samaradorligi. Bu tamoyil nafaqat kredit summasi va foizning bankka qaytarib to'lashini, shuningdek undan kreditlangan yoki moliyalashtirilgan

soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishganini ifodalaydi.


Ipoteka banki tomonidan kredit to'lovi miqdorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy omillar mavjud:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Ipoteka bankiga beriladigan kreditlar bo'yicha o'rnatilgan bazaviy foiz stavkasi;
- Banklararo kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, ya'ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar bo'yicha;
- Turli depozit hisobvaraqlar bo'yicha mijozlarga Ipoteka banki tomonidan to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasi;
- Ipoteka bankining kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag'lar hissasi yuqori bo'lganda kredit narxi ham yuqori bo'ladi);
- Kreditga bo'lgan talab;
- Talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya'ni uning ta'minlanganligiga bog'liq ravishda xatar darajasi;
- Mamlakatdagi pul aylanishini muvozanati (inflyatsiya sur'ati yuqori bo'lsa kredit shunchalik qimmat bo'ladi, chunki pul qadrsizlanishi tufayli Ipoteka bankniing o'z resurslarini yo'qotish xatari ortadi) va boshqalardir.

1.3. Tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari.

Bank mohiyati jihatidan moliya-kredit tashkiloti bo'lib, uning uchun kreditlar berish shu jumladan yuridik shaxslarga kreditlar berish bank xizmatlarinig bir ko'rinishi hisoblanib, u boshqa bank operatsiyalari ichida asosiy o'rin egallaydi.

Ipoteka banki o'z mijozlariga kreditlar berish uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini ishlatmay, balki bunday pul mablag'larining manbalarini shakllantirishdan hosil bo'lgan pul mablag'larini ham ishlatadi. Bunda boshqa tijorat banklaridan olingan kreditlar bilan bir qatorda pul mablag'larini o'z omonatchilaridan va tashkilotlardan turli hisobvaraqlarga jalb etadi. Bu hisobvaraqlarda mablag'lar saqlanadi va turli xil hisob-kitoblarda qo'llaniladi.



3-chizma. Bank kreditlari manbalari.

Ipoteka banki kreditlari muddatiga qarab turlicha bo'ladi. (uzoq va qisqa); qarzdorning tashkiliy - huquqiy tuzilishiga qarab (davlat, xususiy va aksionerlik jamiyati, kooperativlar, uyushmalar, boshqa banklar, qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar va hokazolar); tarmoqqa qarab, (sanoat qishloq xo'jaligi, kommunal kredit); maqsadiga qarab (mavsumiy xarajatlar uchun, to'lov hujjatlarni to'lash uchun, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun va boshqa asosiy aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish) shuningdek boshqa mezonlarga qarab yirik va kichik kreditlarga farqlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek Ipoteka banki kredit berish uchun jalb qilingan barcha mablag'larni va o'z mablaglarini ishlatishi mumkin. Bu mablag'larning bir qismini majburiy rezervlar sifatida Markaziy bankga o'tkazishi kerak va shuningdek, ularning bir qismini yuqori likvid mablag'lar shaklida saqlanishi lozim.

Mablag'lar qoldig'i bankning kredit potentsialini ifodalab, kredit berish uchun ishlatiladi. Ipoteka banki foyda ko'rib ishlashi uchun o'z kredit potentsialidan samarali foydalanishi lozim, bu esa hozirgi murakkab kredit bozori munosabatlari sharoitida juda qiyin masala hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida rejali iqtisodiyotdan farqli o'laroq, kredit munosabatlarining markazlashtirilgan qat'iy me'yorlari bo'lmaydi¹³. Bu esa, bank va qarzdor o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tuzilishini anglatib, ikkala tomon ham teng huquqli va o'z maqsadlariga asoslangan holda ularni mujassamlashtirib faoliyat ko'rsatadilar. Qarzdor kredit olish uchun o'ziga munosib bankni tanlashi va bir yo'la turli banklar kreditlaridan foydalanishi mumkin. Bank ham o'z navbatida mijozlarni tanlash huquqiga ega va unga kredit berishda o'zlariga muhim va foydali

¹³ Umarov Z. Tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi va tahlilining nazariy-uslubiy masalalari. –T.: O'zR Bank-moliya akademiyasi. nom. diss. 2010. 72- bet

deb topgan shartlarni qo'yishi mumkin.

Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki sub'ekti - bank va qarz oluvchi (mijoz)ning o'zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Kreditor sifatida Ipoteka banki olib boradigan faoliyati ular uchun me'yoriy bo'lgan hujjat kredit siyosatida hamda kreditlash jarayonini tashkil etish bo'yicha qo'llanmada o'z aksini topadi. Ipoteka banki kredit siyosatini hamda kreditlash jarayonini tashkil etish bo'yicha qo'llanmani mustaqil tuzadi. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi. Bankning kredit siyosati kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

Ipoteka bankida kredit siyosatiga quyidagicha ta'rif beriladi: bankning kredit siyosati — kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarini belgilovchi hamda bank rahbariyati va hodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir¹⁴. Shuningdek bank kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqadi va amalda joriy etadi. Bu siyosatni ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank raisi va bank boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Kredit siyosatining xarakteri bank kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1 fevraligacha bo'lgan muddatda qayta ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ipoteka bankining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq ob'ektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi. Kredit siyosatini to'g'ri tuzish va olib borish, barcha bo'limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushinilishi bank boshqaruviga

¹⁴ Abduvaxidov F.T. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti. 2010-yil. 64-bet.

kredit standartlarini to'g'ri olib borishiga, yuqori xatarlardan qochishga, bank imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga asos hisoblanadi. Yaxshi ishlab chiqilgan kredit siyosati kredit xatarini boshqarish va uni kamaytirishga yaxshi imkon beradi.

Kredit siyosatining zarurligi shundaki, bank katta yoki kichikligidan, unda kam yoki ko'p xodim ishlashdan qat'iy nazar, bankda bu siyosat bo'lishi lozim. Chunki bu siyosat kredit bo'yicha unifitsiyalashgan umumiy qoida va tamoyillarining bajarilishini, operatsiyalar bajarilishi va ular hisobining ketma-ketligini ta'minlaydi¹⁵. Kredit siyosati bankning hamma hodimlari uchun – kichik hodimdan yoki bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va yechimlar to'plami deyiladi.

Ipoteka banki kredit siyosatida qanday kreditlar, qancha miqdorda, qanday shaklda, kimga, qaysi shartlar bilan berilishini aniq belgilab olgan. Ammo biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun har bir faoliyat xatar bilan bog'liq ekanligini hech qachon esdan chiqarmaslik lozim. Endi biz Ipoteka banki siyosatiga to'xtaladigan bo'lsak Ipoteka banki siyosati - bankning depozit siyosati, kredit siyosati, foiz siyosati, valyuta siyosati, mijozlarga kassa-hisob. xizmatini ko'rsatish siyosati va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha siyosati, banklarning likvidligini ta'minlash siyosati, kadrlar siyosati majmuasidan iboratdir.

Shunday qilib, bankning kredit siyosatini ishlab chiqish bank faoliyatini tartibga solib turuvchi organlar tomonidan belgilangan andozalar (standart)ga amal qilish va foyda keltiruvchi kreditlar berishni ta'minlovchi mexanizmlardan biridir¹⁶. Bu siyosat quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- Kredit portfelini tuzishdan maqsad, kredit turlari va sifati, ularni qaytarib olish tartibi(to'lash);
- Kredit berishga, uning eng yuqori bahosi va turini aniqlab, tasdiqlovchi vakolatli bank xodimi haqida axborot;
- Kredit boshqarmasi doirasida qaror qabul qilish va ma'lumotlar berish

¹⁵Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi Nizom. 19.07.2003 y. 14-bet

¹⁶ Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 17.12.2004 yilda 1435-son bilan ro'yxatga olingan.21-bet

majburiyati;

- Mijozlar tomonidan kredit olish uchun berilgan arizalarni qabul qilish tajribasi;

- Har bir kredit arizasiga ilova qilinishi, shuningdek, kredit ishida saqlanishi lozim bo'lgan zarur hujjatlar (moliyaviy hisobot, garov va kafillik shartnomalari va boshq.)

- Kredit bo'yicha hujjatlar to'plamining saqlanishi va tekshirilishi uchun mas'ul shaxslarning huquqlari;

- Kredit ta'minotini (garovni) qabul qilish, baholash va so-tishning asosiy qoidalari;

- Kredit siyosati kreditlarga o'rnatadigan foiz stavkalari va haqlari, ularni to'lash shartlarining (bayoni);

- Barcha kreditlarga qo'llaniladigan sifat andozalarining ta'rifi;

- Kredit qo'yilmalarining eng yuqori miqdori;

- Bank kredit qo'yilmalarining asosiy qismi yo'naltirilgan hudud yoki tarmoq ta'rifi;

- Muammoli kreditlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni yo'qotish tajribalari ta'rifi.

Bank kredit siyosatining talqini ushbu bank uchun juda muhimdir. Chunki unda bank xodimi bajarishi lozim bo'lgan vazifalar o'z aksini to'liq topadi. Bu siyosat yordamida kredit mutaxassisi ko'zlagan bir qator maqsadlariga, ya'ni daromadlilikni ta'minlash, xatar darajasini nazorat qilib pasaytirish choralarini ko'rish, bank faoliyatini nazorat qilib tartibga solib turuvchi organlar talablarini qondirishga erishadi. Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, ushbu siyosat:

- Kreditning asosiy summasini kredit to'lash muddatining so'ngida va kredit to'lashning boshlang'ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini;

- To'lovlarni o'z vaqtida to'lanishni ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va

berilgan kreditlar bo'yicha qarzni undirib olish o'yicha chora-tadbirlarni; kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichida ham yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi

2-Bob. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni hisobini tashkil etish.

2.1. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning hujjatlashtirishini tashkil qilish.

Ipoteka bankida yuridik shaxslarga kredit berishni rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan va Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yo'riqnoma asosida amalga oshiriladi¹⁷. Kreditni berish va hujjatlashtirish tartibi hozirgi paytda markazlashtirilmagan va u Ipoteka banki tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Lekin Markaziy bank tomonidan kreditlashning umumiy ishlab chiqilgan tartibi mavjud bo'lib, unga barcha tijorat banklari qatorida Ipoteka banki ham amal qiladi.

Ipoteka bankida mijozlarga kreditlar berishdan tortib ularning so'ndirilishigacha bo'lgan muddat mobaynida bank hujjatlar aylanishining yahlit tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizimning dastlabki bosqichi mijoz tomonidan kredit arizasini berishdan boshlanadi.

Kreditga layoqatlilikni baholash uchun bank mijozdan quyidagi hujjatlarni talab qiladi¹⁸:

- 1.Kredit miqdori, foydalanish muddati, maqsadi, ta'minoti kursatilgan kredit arizasi
- 2.Kredit oluvchining ta'sis hujjatlari (nusxasi)
3. Kredit hisobidan moddiy boyliklar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun qarz oluvchi tomonidan tuzilgan shartnomalar yoki ahdlashuv bayonnomasining nusxalari
- 4.Oxirgi hisobot davri uchun Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi buxgalteriya balanslari.

Bu xujjat belgilangan tartibda Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan va unga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi kerak:


- Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
- Pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot
- Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotlar

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan «Kreditlash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnoma. –T.: 2004 yil.16-bet

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma. O'zR AVda 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.20-bet

- Zarur hollarda boshka hisobotlar ko'rsatiladi

Bunday tartibni shartli ravishda muhim chizma ya'ni kreditlashning asosiy umumiy chizmasi (4-chizma) tariqasida tasviralash mumkin



4-chizma Ipoteka bankining kreditlash tartibi.

1. Boshqa kreditorlardan qarzlar hamda boshka banklarda hisobraqamlari va saqlanayotgan bo'sh pul mablag'lari holati bo'yicha ma'lumotnoma

2. Boshqa korxonalarni tashkil etishda ta'sischi sifatida o'z sarmoyasi bilan qatnashganligi yoki qatnashmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma

3. Biznes reja.

Biznes reja bankni mijozga kredit berishga asos bo'ladigan muhim hujjatlardan biridir.

Unda mijoz olingan kreditning maqsadli va samarali foydalanilishi uchun ishchi va hodimlar malakasining yetarliligi, bozorda kutilayotgan o'zgarishlarning marketing tadqiqotlari xulosasi,

kreditni qaytarish grafigi va kreditdan foydalanish orqali kutilayotgan moliyaviy natijalar hamda sof foydaning miqdoriga real shart-sharoitlar va imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatib berishi kerak. Zarurat bo'lganda bank auditorlik tekshiruvi xulosasi va hisobotini mijozdan talab qilishi mumkin.

Kreditning maqsadli ishlatilishini asoslash uchun quyidagi hujjatlarning nusxalari mijoz tomonidan taqdim etiladi:

Uskunalar va texnika sotib olishda :

- Uskunani sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnoma.
- Uskuna yordamida ishlab chiqariladigan maxsulotlarni sotish bo'yicha shartnomalar va ahdlashuv bayoni.

- Uskunani umatish uchun ajratilgan yer maydonining egalik xuquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatlari yoki ijara shartnomasi nusxasi.

Ijara shartnomasining muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi kerak.

Ko'chmas mulk harid qilishda:

- Ko'chmas mulk sotuvchiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar to'plami.
- Sotib olinayotgan ko'chmas mulkning kadastr hujjatlari
- Ko'chmas mulk bo'yicha kadastr boshqarmasi ro'yxatga olish idorasining 18-sonli ma'lumotnomasi.

Qurilish va rekonstruktsiya qilishda:

- Yer maydoni ajratilganligi va ushbu yer maydoniga bo'lgan huquqni yoki rekonstruktsiya qilinadigan ob'ektga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar.

- Belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari.
- Loyiha-smeta hujjatlarining ekspertiza xulosasi.
- Davlat arxitektura qurilish nazorati inspeksiyasining qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun ruxsati va ob'ektning ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi kartochkasi.

- Ekologik ekspertiza xulosasi.
- Belgilangan tartibda tasdiqlangan qurilishning aniq manzilli ro'yxati, titul ro'yxati va qurilish montaj ishlarini bajarish jadvali.

- Qurilish tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan tuzgan shartnomasi va sug'urta polisi.

- Moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar, hisob-kitob (smeta) qiymati 2 mlrd so'm va undan yuqori bo'lgan ob'ektlar uchun Hukumat Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro'yxat.

Kapital ta'mirlashga:

- Belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari.
- Loyiha-smeta hujjatlarining ekspertiza xulosasi.

- Moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar, hisob-kitob (smeta) qiymati 2 mlrd so'm va undan yuqori bo'lgan ob'ektlar uchun Xukumat Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro'yxat.

- Belgilangan tartibda tasdiqlangan qurilishning aniq manzilli ro'yxati, titul ro'yxati va qurilish montaj ishlarini bajarish jadvali.

Bank ma'sul xodimi tomonidan mijoz taqdim etgan hujjatlar o'rganilgach bank arxiviga murojaat qiladi. Agar mijoz oldin ham kredit olgan bo'lsa, arxivda uning kechiktirib to'langanligi va boshqa kamchiliklari haqidagi ma'lumotlar bo'ladi. Undan tashqari, bank boshqa kredit tashkilotlari bilan aloqa o'rnatib, ushbu qarzdor to'g'risida ma'lumot olishi mumkin.

Agar ma'sul xodim ijobiy tahlil natijalarini olsa (salbiy taxlil natijasida ham) kredit xizmati ko'rsatish bo'yicha xulosa tayyorlaydi. Bu xulosada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- Kredit maqsadi, miqdori va muddati.
- Mijoz faoliyatining kredit maqsadiga mosligi
- Mijoz kredit qobiliyati
- Mijoz kredit tarixi
- KAMIdan olingan ma'lumotlar
- Mijoz moliyaviy imkoniyatlari
- Biznes-reja tahlili
- Kredit ta'minoti holati
- Mijoz va kafillarning kreditni jalb etish va kafil bo'lishga vakolati borligi
- Kredit riski darajasi
- Kredit shartnomasi shartlari

Xulosa ma'sul xodim va bo'lim boshlig'i imzolari bilan tasdiqlanadi va kredit komissiyasiga topshiriladi. Kredit komissiyasi 10 kun ichida yakuniy xulosani berishi kerak. Agar qaror qabul qilish uchun kredit komissiyasi vakolatidan yuqori bo'lsa kredit arizasini ko'rib chiqish uchun filiallararo kredit komissiyasiga topshiriladi. Filiallararo kredit komissiyasi kredit loyihasini 5 kun ichida o'rganib, qaror qabul qilishi lozim. Kredit loyihasi ularning ham vakolatlaridan yuqori bo'lsa hujjatlar Bank Kredit Qo'mitasiga yuboriladi. Bank Kredit Qo'mitasi topshirilgan loyihani 15 kun ichida o'rganib chiqib yakuniy qaror chiqaradi.

Kredit berishda quyidagi tartibda ish ko'riladi:

Kredit xodimi elektron kredit buyurtmasini to'ldiradi. Buyurtma Markaziy Devonning Kredit Boshkarmasi tomonidan tasdiqlangach kredit shartnomasi rasmiylashtiriladi.

Shartnoma imzolangandan so'ng elektron kredit kartochkasi ochiladi va buhgalteriya bo'limiga kredit hisobvarag'i ochish bo'yicha farmoyish beriladi.

Kredit bo'limi boshlig'i elektron kredit kartochkasini KAMlga (Kredit axborotlari milliy instituti) ro'yxatdan o'tkazish uchun yuboradi.

Kredit kredit hisobrakamidan mijoz to'lov topshiriqnomasi orqali ham berilishi mumkin. Kredit to'lovlari hujjatlari nazorat qilinib, mijoz kredit yig'majildiga tikib qo'yilad.

Kreditlarning maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun kredit monitoringi o'tkazilib turiladi. Kredit monitoringi majburiy ravishda har chorakda o'tkazib turilishi kerak. Monitoring natijalari mijoz yig'majildiga tikib qo'yiladi yoki alohida saqlanadi.

Umuman kredit bo'limida quyidagi xujjatlar yuritiladi:

- Kredit arizalarini ro'yxatga olish kitobi
- Mijozlarning har biriga alohida kredit yig'majildlar
- Monitoring natijalari uchun yig'majildlar

Kredit arizalarini ro'yxatga olish kitobi raqamlangan, tikilgan va muhrlangan bo'lishi kerak. Kredit yig'majildi ustki tarafida :

- Bank va filialning to'lik nomlanishi
- Yuridik shaxsning nomi
- Kredit bo'yicha ma'lumotlar: kredit summasi, miqdori, muddati, kredit berish shakli v.b.

2.2.ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning buhgalteriya hisobi

Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning buhgalteriya hisobini yuritish «Tijorat banklarida kreditlarning buhgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizom, «Tijorat banklari foizlarni hisoblash to'g'risidagi» nizom, ATIB Ipoteka bankining kredit siyosati ATIB Ipoteka tizimida kreditlash jarayonini tashkil etish bo'yicha qo'llanma kabi hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga rioya qilingan holda tashkil etiladi. Ipoteka bankida kredit berilishi kredit komissiyasining farmoyishi asosida amalga oshiriladi va kredit bo'limi hodimi hisob operatsiya bo'limiga mijozga kredit berish to'g'risidagi farmoyishini ma'sul ijrochilarga beradilar. Ma'sul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida kredit berish bo'yicha buhgalteriya o'tkazmalarini bajaradilar.

Kredit hisobvarag'i ochilgandan so'ng, kreditning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarini amalga oshirish mumkin.

Bu hisobvaraqlarda bank tomonidan mijozlarga berilgan kreditlarning hisobi yuritiladi.

Ipoteka banki kredit siyosatida yuridik shaxslarga berilgan kreditlarni maqomi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

–muddati o'tgan kreditlar - bank va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga ko'ra o'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar. Bu toifadagi kreditlar muddatsiz hisoblanib, imkoniyati bo'lishi bilan undirib olinadi.

–shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar - o'zaro qayta ko'rib chiqilgan yoki qayta tuzilgan shartnomalarga asosan muddati, yangi foiz stavkasi yoki ta'minlanganlik holatiga qo'shimcha talablar va shu kabi boshqa shartlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kreditlardir. Muddati o'tgan kreditlar bo'yicha foizlar ko'zda tutilmagan holatlar alohida hisobvaraqda hisobga olib boriladi va qarzdor kreditni qaytarayotganda foizlari ham birga undirib olinadi.

–Har bir kredit turi bo'yicha alohida hisobvaraqlar ochiladi. Hisobvaraqlarning debetida berilgan kreditlarning summasi, kreditida esa qarzdorlar tomonidan qaytarilgan kreditlarning summasi aks ettiriladi. Bu hisobvaraqlar bo'yicha analitik hisob har bir qarzdor va kreditlarning turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Hisobvaraqlar turlariga qarab asosiy qarz, asosiy qarzning foizini , muddati o'tgan kredit asosiy qarzni foizi hamda shartlari qayta ko'rib chiqilayotgan kreditlarning hisobvaraqlaria bo'linadi.

Ushbu hisobvaraqlar boshqa banklarga va mijozlarga berilgan kreditlar summasiga debetlanadi. Ipoteka bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilganda yoki muayyan kreditning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu kreditlar bo'yicha ko'rilgan zarar qoplanayotganda tegishli kredit hisobvaraqlari kreditlanadi.

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa, lekin buning uchun firmaning xususiy mablag'i etmasa, bunday hollarda firmada bir martalik qarz mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ldi deyishadi. Bu ehtiyojni qondirish uchun "kredit yo'li ochilmagan" kredit hisobvarag'idan foydalaniladi. Bunday hisobvaraqdan kredit berish bir martalik kredit berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday kreditning har biri bo'yicha bank boshkaruvi alohida qaror qabul qiladi. Bu shuni bildiradiki, agar kelgusida yana kredit zarur bo'lsa, mijoz raxbariyati bank talab qilgan hujjatlarning yangi to'plamini to'liq ishlab chiqishi, xuddi birinchi kredit olinganidek muzokaralar olib borishi va barcha talablar bajarishi lozim.

Shuning uchun, agar kredit resurslariga ehtiyoj uzoq muddatli va takrorlanuvchan ekanligi oldindan tahlil qilinsa "kredit yo'li ochib" kredit berish to'g'risida shartnoma tuzish qulayrok bo'ladi va arzonroq tushadi. Kredit yo'li deganda - bu mijoz bilan bank o'rtasida belgilangan summada qarzlar turkumini berish to'g'risida tuzilgan kelishuvidir¹⁹.

Kredit yo'lini ochishda bank tomonidan kreditlash limiti belgilanadi. Shu limit doirasida kredit berishda bank bilan qo'shimcha muzokaralar olib borish talab qilinmaydi. Kredit yo'lining ochilishi shuni bildiradiki, mijozga etkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun bank kredit summasi doirasida mijozning hisob-kitob hujjatlari bo'yicha pul to'laydi. Shu bilan birga, bank pulni hujjatlar topshirilgan kuni to'lashga majbur. Kredit o'z vaqtida berilmaganligi va mijozning tovar etkazib beruvchilar bilan hisob-kitobni kechikib amalga oshirilganligi uchun bank javobgar hisoblanadi.

Kredit olish uchun alohida kredit ochish yo'lini ochish shart emas. Bank bilan uning mijoz o'rtasida maxsus bitim tuzilib, shu bitimga asosan mijozga uning hisob-kitob varag'ida qolgan mablag'dan ortiq summadagi to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi. Kreditning bunday

¹⁹ Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазавой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. с. 216

turi overdraft deyiladi²⁰. Shartnomada overdraft qarzning eng katta summasi, kredit berish shartlari: kreditni qoplash tartibi, foiz darajasi belgilanadi. Overdraftda mijozning hisob-kitob varag'iga kelib tushidagan barcha summa qarzni qoplashga yo'naltiriladi. Shuning uchun qarz xajmi mablag' kelib tushgan sari o'zgarib turadi, ana shunisi bilan overdraft kreditning boshqa turlaridan farqlanadi. Overdraft qisqa muddatli kreditlash qoidalarida ko'zda tutilganiga qaramay, tijorat banklari tajribasida overdraftni kontokorrentdan boshqa istalgan kredit turiga kayta rasmiylashtirish xuquqi qo'llanilmoqda.

Kontokorrent hisobvarag'i mijozning barcha operatsiyalarini birga jamlashga imkon beradi. Kontokorrent hisobvarag'i mijozning bankdagi kredit hisob-kitob xizmatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan yagona hisobvarag'i bo'lib, barcha operatsiyalar shu hisobvara bo'yicha bajariladi. U kredit hisobvarag'i va hisob-kitob hisobvarag'i alomatlarini o'z ichiga jamlagan. Kontokorrekt hisobvara qda bir tomondan tushumlar aks ettirilsa, ikkinchi tomonda kreditlar va to'lovlar qayd qilinadi. Natijada debet saldo (qarz) ham, kredit saldo (mablag'ning mavjudligi) ham vujudga kelishi mumkin. Kontokorrekt hisobvarag'i ochilganda qarz oluvchi mijozning hisob-kitob scheti yopiladi. Bank kontokorrekt hisobvarag'i bo'yicha kreditlash limiti kreditning chegaraviy miqdorini belgilaydi. Shu limit summasiga bankning kafolat majburiyati rasmiylashtiriladi uning shakli xuddi kredit nuli ochishdagidek bo'ladi.

Ushbu kredit mablag'larini faqat mijozning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tovarlar va xizmatlarga sarflash mumkin. Boshqa barcha to'lovlarga faqat kontokorrekt qo'llanilmaydi. Kreditning bu turi chet el tajribasida cheklar va kredit kartochkalari bilan hisob-kitob qilishda keng qo'llaniladi.

Agar kredit hisobvarag'i 01 bilan tugasa berilgan kredit, 05 bilan tugasa berilgan muddati o'tgan kredit, 09 bilan tugasa berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlarni tasniflaydi.

Bankda har bir mijozga berilgan kredit bo'yicha alohida kredit hisobvarag'i ochiladi. Agar kredit hisobvarag'i 01 bilan tugasa berilgan kredit, 05 bilan tugasa berilgan muddati o'tgan kredit, 09 bilan tugasa berilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlarni tasniflaydi.

Ipoteka banki tomonidan mijozga kredit berilganda quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

²⁰ Kursov V.N., Yakovlev G.A. Tijorat banklarida buhgalteriya hisobi: Banklarning yangi buhgalteriya o'tkazmalari– 9-nashri, - M.: INFRA-M, 2006 – 89- bet.

Dt 11900-15500 (tegishli kredit hisobvarag'i)

Kt 10301 - "Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro"

(agar mablag' oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatilsa)

Kt mablag' oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i (agar mablag' oluvchiga mazkur bankda xizmat ko'rsatilsa)

Kt 10100 – "Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari" (kredit naqd pulda berilganda).

Kredit naqd pulda berilsa:

Dt Qarz oluvchining kredit hisobraqami

Kt 10101- qarz oluvchining maxsus hisobraqami

Kredit berish munosabati bilan bank tomonidan olinadigan vositachilik haqi qarzorning moliyaviy ahvolini va investitsiya loyihalarini qoplanishini baholash, kafolatlarni baholash va aks ettirish, garov va boshqa ta'minotlarni tashkillashtirish bo'yicha tadbirlar, hujjatlarni tayyorlash va ular bilan ishlash hamda bitimni yakunlash bilan bog'liq bank xarajatlari kompensatsiyasini o'z ichiga oladi.

Banklar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari uchun potentsial qarz oluvchilardan vositachilik haqi olinayotganda quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kt 22896 "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar"

Kreditlarni qaytarilishi qarz oluvchining asosiy, shuningdek ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Dt Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kt Kredit hisobvarag'i

Agar kredit kafolat beruvchi (kafil) tomonidan qaytarilsa, quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt Kafolat beruvchi (kafil) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yoki

Dt 10301 – Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro (agar oluvchiga boshqa tijorat banki xizmat ko'rsatsa)

Kt Kredit hisobvarag'i

Kreditlar qarz oluvchi tomonidan naqd pulda qaytarilganda quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10100 – “Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari”

Kt Kredit hisobvarag'i

Agar kreditga foiz o'stirmaslik maqomi berilmagan bo'lsa, unda kreditlar bo'yicha foizlar tushumi quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Dt- Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kt 16309 – “Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar”

Kreditlar bo'yicha asosiy qarzni va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlarni qaytarish quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

a) Asosiy qarz qaytarilganda:

Dt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar”

Kt – Kredit hisobvarag'i

b) Asosiy qarz to'liq qaytarilgandan keyin, foizlar qaytarilayotganda:

Dt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar”

Kt 41400-44600 - Kreditlar bo'yicha foiz daromadlari

Garov sifatida qo'yilgan mol-mulklar balansdan tashqari hisobvaraqlarda yuritiladi.

Agar garovga qimmatli qog'ozlar qo'yilgan bo'lsa:

Dt 94502-Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar

Kt 96381- Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar bo'yicha kontr hisobvarag'i.

Agar garovga mulk qo'yilgan bo'lsa:

Dt 94502-Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar

Kt 96381- Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar bo'yicha kontr hisobvarag'i.

Kredit ta'minoti sifatida kafolat, kafillik va sug'urta polislarini balansdan tashqari hisobraqamlarda yuritish:

Dt 94503-Garov sifatida qabul qilingan kafolat va kafilliklar

Kt 96381- Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar bo'yicha kontr hisobvarag'i.

Olingan kredit garovga olingan mol-mulkni o'z egaligiga olish yo'li bilan qaytarilgan taqdirda, kreditning balans qiymatidan va garovga qo'yilgan mol-mulkning haqqoniy qiymatidan qaysi biri eng kam bo'lsa, o'sha qiymat bo'yicha, uni sotish bo'yicha qilingan xarajatlarni chegirgan holda, lekin qayta savdodagi dastlabki sotuv bahosidan 10% kam bo'lmagan summada quyidagi buhgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 16701 – «Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan mulk»

Kt Kredit hisobvarag'i

2.3. ATIB Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy zahiralarini tuzish va ularning buhgalteriya hisobi

Ipoteka banki o'z aktivlarini tasniflash hamda shubhali va harakatsiz aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun etarli bo'lgan zahirani tashkil etishi shart. Shu boisdan, quyidagi tushunchalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Har bir bank qatori Ipoteka banki ham bank omonatchilarini himoyalash maqsadida har oyda Markaziy Bank majburiy zahirasiga ajratmalar ajratadilar. Bunda 3 yil muddatgacha qabul qilingan depozitlardan 20 foiz, 3 yildan ortiq muddatlarga qabul qilingan depozitlar uchun 10 foiz miqdorida ajratmalar ajratilishi majburiydir.

Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira - bank kredit portfeli va balansdan tashqari majburiyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o'zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari bo'yicha zararlarni

qoplash uchun tashkil etilgan zahiralarni kontr-aktiv hisobvarag'i.

Maxsus zahira - "standart", "substandart", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan kreditlar bo'yicha yuzaga kelish mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira.

Umumiy zahira - bu zahira bank faoliyati bo'yicha umuman yoki biror-bir faoliyat turi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan. Alohida muayyan operatsiyalarga doir zararlarni bundan mustasno. "Yaxshi" kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi yoki milliy valyuta devalvatsiyasi bo'yicha xazinalar bunga misol bo'la oladi.

Muddati o'tgan kreditlar - qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko'zda tutilgan to'lash shartlari va jadvali buzilgan hamda asosiy qarz va unga doir foizlarning navbatdagi to'lovi to'lov muddati etib kelganidan so'ng to'lanmagan kreditlar.

Restrukturizatsiya qilingan kreditlar - qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan kreditlar. Agarda bank tomonidan qo'yidagi amallarning hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, kredit restrukturizatsiyalangan hisoblanadi: foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi; jami asosiy qarzni kamaytirilishi yoki undan voz kechilishi; kreditni to'lash muddatining kechiktirilishi yoki uzaytirilishi; foizlarga doir to'lovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish; oddiy sharoitlarda qarzdorga berilmay, balki kreditni restrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bo'lgan boshqa yon berishlar.

Yangi bozorga doir foiz stavkalari - yangi kredit dastlabki yoki yangi qarzdorga pasaytirilgan foiz stavkalarida berilayotganda qo'llaniladi. Bunday kreditlar korxonalarga hukumat qarorlariga ko'ra berilishi mumkin. Shuningdek ular qarzdor tomonidan kredit to'lanmasligi oqibatida bank tomonidan huquqlar olingan qarzdorning aktivlarini sotish uchun ham berilishi mumkin. Pasaytirilgan foiz stavkali yangi kreditlar uchun foiz stavkasi qaytarilishi aynan shunday tavakkalchilikka xos kreditlarga doir kreditlashning foiz stavkasidan past bo'lmasligi lozim.

O'stirilmaydigan kreditlar - belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar - qimmatli qog'ozlar bozorida baholanadigan mulk yoki kreditning asosiy summasi va unga doir foizlarni to'liq qoplash imkonini beradigan miqdorda bank depozitlari ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan kreditlar.

Qisman ta'minlangan kreditlar - "yaxshi ta'minlangan kreditlar" mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minot. Xususan, ularga doir taqdim etilgan garov qiymati kredit summasi va unga doir foizlarning 100 foizidan, shuningdek, garovni sotishda ko'zda tutilayotgan xarajatlardan kam yoki e'lon qilingan qiymat bo'yicha garovning sotilishi shubha tug'diradigan kreditlar.

Ta'minlanmagan kreditlar - biror-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar. Odatda bunday kreditlar qarzdoming kuchli tushumlari potentsiali yoki uning yaxshi kredit tarixi asosida beriladi. «Ta'minlanmagan kreditlar»ga, garov belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar ham kiradi.

Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo'llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni ko'zda tutadi. Ushbu tizim boshqa bank aktivlari, jumladan, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bo'lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baholashdan boshlanadi: tendentsiya va tarmoq kelajagi; qarzdoming moliyaviy ahvoli; mijozning kredit tarixi; muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi; korxonadagi rahbarlik va boshqarish sifati.

Kredit taxlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni to'lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va tijorat bankining boshqa aktivlariga xos bo'lgan tavakkalchilikni aniqlash va baholashda qo'llash juda muhimdir.

Ipoteka bankida bank aktivlarini quyidagi tartibda va toifalar bo'yicha tasniflash mumkin: yaxshi - ushbu aktivlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi shubha tug'dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun etarli pul mablag'lari oqimiga ega. Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o'z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo'ladi. Qarzdor mavqeini baholash kreditga doir to'lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi kabi omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Garov "yaxshi ta'minlangan" kredit

mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi qonunchilikka muvofiq notarial jihatdan puxta tasdiqlangan bo'lishi va zarur hollarda tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi lozim. Bank kredit qaytarilmagan holda cheklovlersiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak. "Yaxshi" deb tasniflangan kreditlarda ular qaytarilmasligi alomatlari bo'lmaydi. Foizlar muddati o'tgan kreditlar "Yaxshi" deb tasniflanishi mumkin emas.

Standart- bu toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi to'lov manbasi puxta ta'minlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda qarzdoming moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo'nalishlar mavjud bo'lib, agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdoming kreditni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha uyg'onishi mumkin. Shu bilan birga moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lishi mumkin. Kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki garov ta'minoti bo'yicha hujjatlari bo'lmagan "Yaxshi" kreditlar ham "Standart" aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. To'lanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan kredit hech bo'lmaganda "Standart" aktiv sifatida tasniflanishi zarur. Qisqa vaqt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar "Standart" aktivlar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Biroq, kechiktirilish maqomi aktivning tasniflanishini baholashda asosiy omil bo'lmasligi lozim. "Standart" sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foizi miqdorida zahiralar tuzishi shart.

Substandart- bu aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi. "Substandart" sifatida tasniflangan kreditlarda qarz to'lashning dastlabki manbai qarzga xizmat ko'rsatish uchun etarli darajada bo'lmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo'shimcha manbalarni qidirishga majbur bo'ladi. Shuningdek, substandart aktivlar ishonchli joriy moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to'lov qobiliyati bilan himoyalangan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo'qligi yoki garov hujjatlarining etarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo'lgan kreditlarni ifodalaydi. Ular bo'yicha foizlar yoki asosiy qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlanmagan kreditlar, hech bo'lmaganda,

substandart sifatida tasniflanishi zarur, shuningdek, 90 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlangan kreditlar ham substandart sifatida tasniflanishi lozim.

Shuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv to'lov muddati to'lgunicha substandart sifatida tasniflanishi mumkin: a) asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun etarli emas, bank garovga qo'yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag'larini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan boshqa qarz mablag'larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topishi kerak; b) qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun etarli bo'lmagan hollarda; v) qarz oluvchi kapitali ko'p darajada etarli bo'lmagan korxona bo'lgani taqdirda; g) ushbu sohaga nisbatan yo'nalish va istiqbollar barqaror bo'lmagan holda; d) kreditlar, garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lgan holda.

“Substandart” sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 25 foiziga teng bo'lgan zahiralami shakllantirishi lozim. Shubhali kreditlar substandart deb tasniflanuvchi kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga qo'yadi va kam ishonchli qilib qo'yadi. Ziyon ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha “shubhali” deb tasniflanmaydi. Bunda quyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv “shubhali” deb, tasniflanishi mumkin: a) “substandart” aktivlarning hech bo'lmaganda bironta ko'rsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud bo'lsa; b) yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanishi ehtimolining mavjudligi, shuningdek, ushbu paytda aktivning “umidsiz” deb tasniflanishi zarur emasligi.

Aktivni “umidsiz” deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi: bank aktivlar bo'yicha ayrim to'lov turlarini, yoki, hech bo'lmaganda qisman to'lovlarni oladi; bank garovni undirib olish bo'yicha huquqiy xatti-harakatlarni qo'llay boshlaydi va ta'minot sotuvini o'z vaqtida amalga oshiradi (90 kun ichida); qarzdor tomonidan keyinchalik aktivni to'liq ta'minlaydigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etish harakatlarining amalda boshlanishi.

“Shubhali” deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarz to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar o'z balanslarida bu qarzdorlikning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralarini ko'rish yoki uni qaytarish choralarini qo'llashi kerak. Kamida 180 kunga kechiktirilgan aktiv "umidsiz" deb tasniflanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida aktiv qaytarilmasligidan dalolat beruvchi faktlar va belgilar mavjud bo'lsa ushbu aktiv "umidsiz", deb tasniflanishi mumkin. Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak. Aktiv bir toifadan ortiq toifalarda tasniflanishi mumkin. Summasi asosiy qarzning to'lanmagan qiymatidan kam bo'lgan ta'minotga ega muammoli kredit quyidagicha tasniflanishi mumkin: qiymati ta'minotning bozor qiymatiga teng bo'lgan asosiy qarz qismi odatda substandart sifatida tasniflanadi; asosiy qarzning qolgan qismi ushbu bo'limda ko'rsatilgan tartibda shubhali yoki umidsiz kabi tasniflanadi.

Kreditlar bo'yicha ta'minot hisoblanuvchi garov bank tomonidan kreditni qoplashning asosiy manbai deb, hisoblanmasligi kerak. Garov kreditni to'lashning ikkilamchi manbai deb qaralishi kerak.

Xavfsiz va ishonchli faoliyat andozalariga muvofiq tarzda banklar garovni kreditni qaytarishning vositasi, deb hisoblagan holda kredit bermasliklari kerak. Kredit bo'yicha olingan garovni tahlil qilishda bank garovning likvidligini e'tiborga olishi kerak. Shunga muvofiq ravishda bank asosiy qarz summalarining qaytarilishini va garovni sotishdan olinadigan foizlarni baholashi kerak. Aktivlarning likvidli ta'minotiga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi Hukumatining so'zsiz kafolati; O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so'zsiz kafolati; banklarda ochilgan hisobvaraqlarda erkin ayirboshlanadigan valyuta shaklidagi garov; O'zbekiston Respublikasi Hukumati qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov; andozaviy qimmatbaho metallar shaklidagi, ya'ni oltin va kumush quyimalari shaklidagi garov.

Quyidagi aktivlar nolikvid ta'minotga ega, deb hisoblanadi: ko'chmas mulk, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan erga bo'lgan huquqni hisobga olgan holda; ko'chma mulk; xususiy korxonalarning qimmatli qog'ozlari; yuridik va xususiy shaxslarning kafolatlari.

Restrukturizatsiya qilingan kredit bu muayyan muammolari bor aktivdir. Restrukturizatsiya qilingan kredit, deb tasniflashda quyidagi omillar ko'rib chiqilishi kerak: restrukturizatsiya qilishning asoslari yoki sabablari; bir qarz oluvchiga qarzni qaytarish muddatining necha marta uzaytirilganligi; dastlabki bitim shartlariga nisbatan yangi kredit bitimida keltirilgan kredit shartlaridagi o'ziga xos o'zgaritirishlar. Xususan, foiz stavkasining bozor stavkasi darajasidan pasayishi yoki kreditni qaytarish muddatining uzaytirilishi restrukturizatsiya qilingan kreditni tasniflash va tahlil qilish jarayonida tahlil va ko'rib chiqish uchun muhim sabab hisoblanishi mumkin.

Restrukturizatsiya qilingan kreditlarning yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda ularni tasniflashda quyidagi omillar ko'rib chiqiladi: agar restrukturizatsiya qilingan kredit bo'yicha almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdor dastlabki qarzdoming sho'ba korxonasi yoki unga qaram korxona bo'lsa, bunda kreditlarning dastlabki tasnivi o'zgarmasligi kerak; aktivlarning noqulay tasniflanishi almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdor ta'minot sifatida likvid aktivlarni taklif etishga layoqatli bo'lgan taqdirda o'zgarishi mumkin. Agar yangi qarzdor asosiy qarzning barcha to'lanmagan summalarini yoki asosiy qarz yoki foizlarning qtsmini to'lashga layoqatli bo'lsa, bunday holda aktivning tasnifi tegishli tarzda qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Ehtimoliy o'zgarishlarni qoplashga mo'ljallangan zahirlara likvid aktivlarning muayyan summasi ta'minot sifatida taqdim etilgan holda o'zgaritirilishi mumkin; agar almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdoming dastlabki qarzdor bilan hech qanday aloqasi bo'lmasa, bunday holda kreditni tasniflash mezonlari almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdorga nisbatan qo'llaniladi. Bu hol qarzdoming biznesni normal yuritish sharoitida aktivlarni to'lay olish layoqatiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Aktivlar tasnifi davriy ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak va zarur hollarda, aktivlar har bir qayta tasniflashda almashuvchi va qo'shimcha qarzdorga qarz bo'yicha xizmat ko'rsatishda qayta tasniflanishi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zahirasiining adekvatligi tahlili va zarur hollarda qo'shimcha zahiralarining yaratilishi davriy ravishda kamida oyiga 1 marotaba amalga oshirilishi

lozim. Belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan rezervga nisbatan aktiv bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi faktlar va sharoitlar aniqlangan holda rezervga ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak.

Umidsez, deb tasniflangan kreditlar hisobdan chiqarilishi va tegishli zahirlar darhol kamaytirilishi kerak. Xarajatlar ular tan olingan davrda hisobdan chiqarilishi kerak. Aktivning hisobdan chiqarilishi kredit qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkinligini inkor etmaydi.

Agar kredit noto'g'ri tasniflangan bo'lsa, qo'shimcha kreditlash va bankning ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisiz na joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar shaklida, na yangi kredit shaklida bank qarzdorga qo'shimcha mablag'lar berishi mumkin emas. Biroq, bank bankdagi depozit yoki bank nazorati ostidagi kredit yaxshi ta'minlovchi boshqa garov bilan ta'minlangan qo'shimcha kredit bergan taqdirda yangi kredit boshqa kreditlar noto'g'ri tasniflangan hollarda ham "yaxshi" deb tasniflanishi mumkin.

Markaziy bank muayyan kreditlarning yanada qat'iyroq tasniflanishini yoki quyida keltirilgan noqulay faktlar va hollarning hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan zahiraga qo'shimcha chegirmalarni ajratishni talab qilishi mumkin: bank kredit portfeli umumiy holatining yomanlashuvi; kreditlar berish adekvat bank tadbirlarining o'zgarishi yoki yo'qligi; shunga o'xshash kreditlar, masalan, ushbu sohaga berilgan bo'yicha bank ko'rgan amaldagi zararlar; bank rahbariyatining muammoli kreditlarni o'ndirishga noqobilligi; yirik kreditlarning to'planishi; nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki jo'g'rofik mintaqada katta miqdorda to'planishi; taqdim etilgan bank hisobotini tahlil qilish yoki Markaziy bank nazoratchilari tomonidan o'tkazilgan qarzdorning yohud bankning o'zining moliyaviy ahvoriga taalluqli inspektsiyalar natijasida aniqlangan boshqa holatlar.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralariga ajratmalar "Ehtimoliy zararlarni baholash" hisobraqami orqali bank xarajatlariga kiritilishi va joriy davr uchun "Foydalar va zararlar to'g'risidagi hisobot"ning "Aktivlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash" satrida aks ettirilishi lozim.

Zahiralarning noadekvatligi hollarida bank tomonidan zahiralarning etishmovchiligi aniqlangan davrda zahiralarga qo'shimcha ajratmalar qilinishi zarur. Bu "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisobraqamini debetlash va "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira" (Balans hisoboti) hisobraqamini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar bank aktivlari portfeli tahlil qilinganidan keyin uning zahiralari talab qilinganidan ortiq bo'lsa, u holda bank "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira" (Balans hisoboti) hisobraqamini debetlashi va "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisobraqamini kreditlashi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralarning adekvat darajasini doimiy ravishda ushlab turishning ta'minlanishi uchun to'liq javobgarlik Bank kengashiga yuklatiladi.

Boshqaruv tomonidan Kredit qo'mitasi va Bank Kengashi bilan kelishilgan holda kredit yoki boshqa aktivni to'liq summada ishonchsiz deb ko'rib chiqish to'g'risida qaror qabul qilinsa, u holda ushbu aktiv "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarni" hisobraqamini debetlash va tegishli aktiv hisobraqamini kreditlash yo'li bilan balansdan chiqarilishi zarur. Zahira summasi ehtimoliy yo'qotishlarga etishmovchiligi hollarida qo'shimcha ajratmalar qilinishi lozim. Hisobdan chiqarilayotgan aktiv bo'yicha olinadigan hisoblab yozilgan foizlarni hisobga olish shaxsiy hisobraqami ham bir vaqtning o'zida ushbu muayyan aktiv bo'yicha "Olinadigan hisoblab yozilgan foiz" hisobraqamini kreditlash va "Foizli daromad" hisobraqamini debetlash yo'li bilan yopilishi zarur.

Kredit qarzi va hisoblab yozilgan foizlarning bankning balansidan chiqarilishi kredit va foizlar bo'yicha qarzlarning bekor qilinishi emas. Shuning uchun ko'rsatilgan qarz u hisobdan chiqarilgan vaqtdan boshlab besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida balansdan tashqari hisobraqamlarda aks ettirilishi lozim. Bank asosiy qarz va ushbu hisobdan chiqarilgan kredit bo'yicha foizlarni o'ndirish uchun barcha urinishlarni qo'llashi zarur. Bank qarzdor majburiyatining to'liq summasini to'g'ri aks ettirish uchun mazkur aktivga foizlar hisoblab yozishni davom ettirishi mumkin. Bunda bank muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta, qarzdor mijozga balansdan tashqari hisobraqamlardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va olinadigan hisoblab yozilgan foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzning mavjudligini tasdiqlovchi ko'chirmani

yuborishi lozim. Ushbu ko'chirmalar bankning muddati o'tgan qarzlarni o'ndirib olish bo'yicha sud organlariga murojaat etishi uchun asos bo'ladi.

Markaziy bank yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumati qaroriga ko'ra markazlashtirilgan resurslar yohud boshqa mablag'lar hisobidan berilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan aktivlarning bankning balansidan chiqarilishi Markaziy bank yohud Hukumat oldidagi qarzlarning bekor qilinishi emas. Bank Markaziy bank yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumati oldidagi qarzlarni hatto agar ushbu mablag'lar hisobidan berilgan kreditlar ilgari tuzilgan kredit shartnomalariga muvofiq to'lanmagan bo'lsa ham qaytarishi shart.

Agar qarzidor balans ortida hisoblanadigan aktiv bo'yicha karzni u hisobdan chiqarilganidan keyin 5 yil davomida to'lasa, u holda ushbu aktiv bo'yicha asosiy qarzlarni ham, foizlar ham balansdan tashqari hisobraqamlardan chiqariladi.

Agar qarzidor ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahira barpo etilgan aktiv bo'yicha qarzlarni hisobraqamiga to'lasa va qarz tijorat bankining balansidan chiqarilmagan bo'lsa, u holda "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" hisobraqami debetlanadi va "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" ajratmalar" hisobraqami kreditlanadi.

Agar qarzidor ushbu aktiv balansdan to'liq chiqarilganidan keyin qarzlarni hisobraqamiga to'lasa, u holda bank tomonidan "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" hisobraqami kreditlanadi, tegishli aktiv hisobraqami, masalan qarzni to'lash uchun pul olinishini aks ettirish kassasi hisobraqami debetlanadi va, oqibatda, bank tomonidan "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" hisobraqami debetlanadi va "Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralar" ajratmalar" hisobraqami kreditlanadi, bu bilan shu vaqtgacha balansdan chiqarilgan zararlar bank daromadlari oqimiga qaytariladi.

3-Bob. Ipoteka bankida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar tahlilini takomillashtirish yo'llari

3.1. Ipoteka bankida mijozlarning kreditga layoqatligini baholash usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xil mulkchilik shakliga ega bulgan korxona va firmalar tashkil topadi. Ularning rivojlanishi ko'p jihatdan puxta ishlab chiqilgan biznes-rejaga va moliyaviy-iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishiga bog'liq. Har kanday korxona o'z faoliyati davomida doimiy ravishda moliyaviy resurslarga muhtojlik sezadi. Shu sababdan ham banklarning o'rni bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda banklarning kredit berish tizimini mukammal ishlab chiqish va uni real shart-sharoitlarni hisobga olib samarali ishlashini ta'minlash Respublika bank-moliya siyosatida alohida o'rin tutadi.

Kredit tizimi- bu bankning kredit berish shartlari, usullari va kredit boshqaruvining yig'indisidir. Kredit tizimi orqali bank o'zining asosiy funksiyasini bajaradi.

Yuridik shaxslarning biznes-rejalarini kredit bilan ta'minlash bankning asosiy daromad manbalaridan hisoblanadi. Bunda bank muayyan shaxsga o'zining moliyaviy mablag'larini risk bilan ishonib topshiradi. Har doim bank uchun kreditning qaytmaslik riski mavjud bo'ladi. Bank o'zining bu boradagi tavakkalchiligini doimo pasaytirish uchun harakat kiladi. Riskni kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri- bu kreditlarni berishda potensial mijozning kreditni qaytara olishini baholashdir. Chunki bank risklarini kamaytirish va uning daromadini oshirishda kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil qilish, mijozning kreditga layoqatligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Endi mijozning kredit olishga layoqatligini belgilovchi mezonlarga to'xtalib utsak.

Mijozning kreditga layoqatligi deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzi va uning foizini) to'la va o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini

tushunamiz. Jahon bank amaliyotidagi kabi Ipoteka bankida ham mijozning kreditga layoqatliligi belgilovchi quyidagi mezonlar o'rnatilgan:

- Mijoz xarakteri (fe'l-atvori);
- Mablag'ni qarz olish qobiliyati;
- Joriy faoliyat davomida qarzni uzish uchun mablag' ishlab topish qobiliyati;
- Mijoz kapitali;
- Kreditning ta'minlanganligi;
- Kredit operatsiyasini bajarish chog'idagi sharoitlar;
- Qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

Mijozning fe'l-atvori deganda uning yuridik shaxs sifatida qarzni o'z vaqtida qoplashdagi mas'uliyati, kreditni olishdan maqsad va uning bank kredit siyosatiga mosligini aniq bilishi kabilar tushuniladi.

Mijozning qarz olish qobiliyati uning kredit olish bo'yicha buyurtmaga va kredit shartnomasiga imzo qo'yish huquqiga yoki vakolatiga ega ekanligi, o'zaro kelishuv va bitimlarni tuzishida namoyon bo'ladi.

Mijoz kapitalini baholashda quyidagi ikkita mezonga e'tibor beriladi:

- Ustav fondining minimal darajasiga (aksioner kapitaliga) nisbatan qo'yiladigan talabga mijoz kapitalining javob bera olishi, uning etarliligi va moliyaviy leveraj koeffitsientlari darajalari;
- Kreditlanayotgan operatsiyaga o'z kapitalini qo'yish darajasi. Bu ko'rsatkich bank bilan qarz oluvchi o'rtasida riskning taqsimoti to'g'risida dalolat beradi. O'z kapital qanchalik ko'p qo'yilsa, shunchalik qarz oluvchini kredit riski omillarini sinchkovlik bilan kuzatishga majbur etadi.

Kreditning ta'minlanganligi deganda qarz oluvchi aktivining qiymati va qarzni uzish bo'yicha aniq ikkilamchi manbalar (garov, kafolat, sug'urta kabilar)ning kredit shartnomasida o'z aksini topganini tushunamiz. Agar aktiv qiymati va qarz majburiyatlarining nisbati qarz oluvchi bankrot bo'lganligi to'g'risida xabar qilgan holda bank kreditini uzish uchun ahamiyatli bo'lsa, aniq ikkilamchi manbalarning sifati esa moliyaviy tanglik holatida mijozning o'z

majburiyatlarini bajarish kafolatini ta'minlaydi. Garov sifati, kafolatning ishonchligi, sug'urta ham bank mijozlari va pul oqimi kamayib ketganda, bank balansida likvidlik muammosi tug'ilganda yoki kapitalning taqchilligi sezilgan hollarda o'ta muhimdir.

Kredit berish chog'idagi sharoitlarga mamlakatdagi va uning mintaqalaridagi, shuningdek, tarmoqdagi iqtisodiy holat va siyosiy omillar kiradi. Bu sharoitlar bankning tashqi riski darajasini belgilaydi. Aynan shularga asoslanib pul oqimi, balansning likvidligi, kapitalning yetarlilik darajasi kabilarga baho beriladi.

Nihoyat, mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi so'nggi mezon, ya'ni qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi bank ma'sul hodimini quyidagi savollarga javob olishga undaydi:

- Mijozning kredit olishi va kredit tadbirlarini amalga oshirishi uchun huquqiy va me'yoriy asoslari mavjudmi?
- Qonunchilikda kutiladigan ehtimoliy o'zgarishlar (masalan, soliqda) qarz oluvchining faoliyati natijalariga qanchalik ta'sir o'tkazadi?
- Yuridik shaxsning kredit olishi bo'yicha tuzgan biznes-rejasida, shartnomada ko'rsatgan talabnomasi qanchalik darajada kredit siyosatiga mos keladi?

Qayd etilgan mezonlar mijozning kreditga layoqatliligi va uning mohiyatini baholash usullarini aniqlashga yordam beradi. Bunday usullar qatoriga quyidagilar kiradi:

- riskni baholash;
- menejmentni baholash;
- moliyaviy koeffitsientlar asosida mijozning moliyaviy barqarorlik darajasini baholash;
- pul oqimini tahlil qilish;
- mijoz to'g'risida ma'lumotlar yig'ish;
- mijozning ish faoliyatini kuzatish va h.k.

Garchi baholash usullari va mezonlar yagona tarzda qo'llanilsada, yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda kreditlarning kichik,

o'rta va yirik ekanliklariga alohida e'tibor beriladi. Shunga binoan u yoki bu usullarni kompleks holda qo'llash zaruriyati tug'iladi.

Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotidagidek, Ipoteka bankida ham mijozning kreditga layoqatliligini baholashda bir qator moliyaviy koeffitsientlar qo'llaniladi. U yoki bu koeffitsientni qo'llash mazkur bank mijozlarining fe'l-atvori, moliyaviy tanglikka duch kelishidagi ehtimollik darajasi, bankning kredit siyosati kabilarga bog'liq. Shu nuqtai nazardan barcha moliyaviy koeffitsientlarni quyidagi besh guruhga bo'lish mumkin:

- I. Likvidlik koeffitsientlari;
- II. Samaradorlik yoki aylanuvchanlik koeffitsientlari;
- III. Moliyaviy leveraj koeffitsientlari;
- IV. Rentabellik(foydalilik) koeffitsientlari;
- V. Qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsientlari.

Bu koeffitsientlar o'z navbatida bir qator xususiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi

I.Likvidlik koeffitsientlari

Joriy likvidlik koeffitsienti-bu ko'rsatkich qarzdorning o'z qarzini uzish imkoniyati darajasini belgilaydi

$$K_{JL} = \frac{JA}{PA}$$

JA-joriy aktivlar

PA- passiv aktivlar

Tezkor likvidlik koeffitsienti

$$K_{TL} = \frac{LA}{PA}$$

LA-likvid aktivlar

II. Samaradorlik yoki aylanuvchanlik koeffitsientlari

Moddiy buyumlarning aylanuvchanligi (K_{FA})

K_{1FA} - bir kunlik buyumlar aylanuvchanligi soni

$$K_{1FA} = \frac{F}{T}$$

F-moddiy buyumlarning o'rtacha qoldig'i

T- 1 kunlik sotuvdan tushum

K_{2FA} -ma'lum davrda aylanma mablag'lar aylanishi soni

$$K_{2FA} = \frac{T}{F}$$

Debitorlik qarzdorligining aylanuvchanligi - K_{DA} (kunda)

$$K_{DA} = \frac{K}{T}$$

K- muayyan davr ichida qarzdorlikning o'rtacha qoldig'i

T- sotuvdan sof tushum

Asosiy kapitalning aylanuvchanligi - K_{AKA}

$$K_{AKA} = \frac{T}{AF}$$

AF- mazkur davrdagi asosiy fondlarning o'rtacha qoldiq qiymati

Aktivlarning aylanuvchanligi (K_{AA})

$$K_{AA} = \frac{T}{A}$$

A-muayyan davrdagi aktivlarning o'rtacha qiymati

III. Moliyaviy leveraj koeffitsientlari

Bu ko'rsatkichda yuridik shaxsning o'z kapitali bilan qanchalik ta'minlanganligi ifodalanadi.

Barcha qarz majburiyatlari va aktivlari nisbati

$$K_{ML} = \frac{KM}{A}$$

KM- kredit mablag' A- aktivlar

Barcha qarz majburiyatlari va o'z kapitali nisbati

$$K_{ML} = \frac{KM}{O'K}$$

O'K- o'z kapitali

Barcha qarz majburiyatlari va aksionerlik kapitali nisbati

$$K_{ML} = \frac{KM}{AK}$$

AK- aksionerlik kapitali

Uzoq muddatli qarzlar va asosiy aktivlar nisbati

$$K_{ML} = \frac{UMQ}{AA}$$

UMQ- uzoq muddatli qarzlar

AA- asosiy aktivlar

O'z kapitali va aktivlar nisbati

$$K_{ML} = \frac{O \cdot K}{A}$$

O'K-o'z kapitali

IV. Rentabellik(foydalilik) koeffitsientlari

Bu ko'rsatkich barcha kapital va uning jalb qilingan qismidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi Foyda normasi ko'rsatkichlari

Yalpi foyda ko'rsatkichi

$$K_{FN} = \frac{YaF}{T}$$

YaF-yalpi foyda

T-sotuvdan sof tushum

Sof operatsion foyda

$$K_{FN} = \frac{SOF}{T}$$

SOF- sof operatsion foyda

$$K_{FN} = \frac{SF}{T}$$

SF- sof foyda

Rentabellik koeffitsientlari

Soliq to'lagungacha foyda

$$K_R = \frac{F}{A}$$

F-soliq to'lagungacha foyda

A-aktivlar

Foizlar to'lovidan keyin va soliq to'lagungacha foyda

$$K_R = \frac{F_1}{A} \quad F_1 - \text{foizlar to'lovidan keyin va soliq to'lagungacha foyda}$$

Sof foyda

$$K_R = \frac{SF}{A}$$

SF- sof foyda

V. Qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsientlari

Qarzni qoplash koeffitsienti

Bu ko'rsatkichlar foydaning qancha qismi kredit to'lovi va foizini qoplashga ketishini aniqlaydi.

Foizning qoplanganlik koeffitsienti

$$K_{FQ} = \frac{F}{FT}$$

F-o'rganilayotgan davr foydasi

FT- olingan davr foiz to'lovlari

Foiz to'lovlarining qoplanganlik koeffitsienti

$$K_R = \frac{F}{S}$$

S= foizlar+kredit to'lovlari+imtiyozli aksiyalar dividendlari+boshqa to'lovlar

Qayd qilingan barcha moliyaviy koeffitsientlar mazkur yoki istiqbol rejalari ma'lumotlariga asoslanib hisoblanadi. Barqaror iqtisodiyot yoki mijozning holatidagi barqarorlikning davomiyliligiga qarab qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash oldingi yilgi ma'lumotlar asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Xorijiy davlatlar amaliyotida odatda so'nggi uch yil ma'lumotlari asosida kreditga layoqatlilik darajasi aniqlanadi. Bunda koeffitsientlar o'rtacha bir yil uchun hisoblanadi. Ularni hisoblashda oborot mablag'lari qoldig'i, debitorlik va kreditorlik qarzlari, kassadagi va hisob raqamlaridagi mablag'lar, aksionerlik kapitali miqdori (ustav fondi), o'z kapitali va h.k. lar asos qilib olinadi.

Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning mol etkazib beruvchilar, xaridorlar va banklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishlari uchun juda katta ahamiyatga ega. Zero, ijobiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar hech qanday to'siqlarsiz kredit olishlari va uning hisobidan tovar-moddiy boyliklarni sotib olishi, salmoqli mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga, oldindan olingan kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lashga yo'naltirishlari mumkin.

Salbiy kreditga layoqatlilik ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar Ipoteka bankidan kredit ololmasada, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarish, sotuv hajmini, o'z mablag'lari miqdorini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha choralar ishlab chiqish lozimligi to'g'risida axborotga ega bo'ladilar.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda ma'lumotlarning har xil manbalaridan foydalaniladi:

- bevosita mijozlardan olingan ma'lumotlar;
- mijoz haqida bank arxivida mavjud bo'lgan materiallar;
- mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar (uning mol etkazib beruvchilari, kreditorlari, uning mijozlari, banklar va boshqalar) tomonidan berilgan ma'lumotlar;

Kreditga layoqatlilikni baholashda quyidagi sifat jihatlarga ham e'tibor beriladi:

- qarz oluvchining reputatsiyasini o'rganib chiqish;
- kredit maqsadini aniqlash;
- asosiy qarz va foizlarning qaysi manbalar hisobidan qoplanishini aniqlash;
- bank qisman o'z bo'yniga oladigan qarz oluvchining risklarini baholash.

Qarz oluvchining reputatsiyasi (obro', shuhrat, dong'i) sinchkovlik bilan tekshiriladi, bunda mijozning kredit tarixini o'rganib chiqish juda muhimdir. Yuridik shaxs rahbarining shaxsiy va ish bilan bog'liq bo'lgan xislatlariga katta e'tibor beriladi.

AQShda potentsial qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun, o'z navbatida, kredit riskini minimallashtirish uchun 5 «S» nomli usul foydalaniladi. Bu usul quyidagi jihatlarga asoslanadi:

- Mijozning reputatsiyasi (obro'si, shuhrati va dong'i) – customer character;
- To'lov qobiliyati – capacity to pay;
- Kapital – capital;
- Kreditning ta'minlanganligi – collateral;
- Iqtisodiy kon'yunktura va uning istiqbollari – current business conditions and goodwill.

Bu usulga binoan mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshiriladi. Dastavval bank mijozning: o'tmishda o'z majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi, qarzlarni to'lashda kamchiliklar bo'lganligi, kreditlanuvchi sub'ektning iqtisodda, bozorda qanday mavqega ega ekanligini tekshiradi. Bunda bank qarzdor bilan suhbat olib boradi, arxivdan mijoz to'g'risida materiallarni olib tahlil qiladi, boshqa firma va banklar bilan maslahatlashadi va h.k.

Bank mijozning kreditga layoqatliligini baholashda ular mablag'larining uch manbasini chuqur o'rganib chiqadi. Bular:

- joriy kassa tushumlari;
- aktivlarni sotish;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari (aytaylik, pul bozorida qarzlar).

Bulardan tashqari, bank asosiy e'tiborini boshqa omillarga ham, xususan, firmalarning aksionerlik kapitaliga, uning tuzilishiga, aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo'lgan nisbatiga hamda qarzning ta'minlanishiga, uning etarlilik darajasiga, sifatiga va qarzni to'lamaslik holda garovni sotish darajasiga qaratadi.

Buyuk Britaniyada ham «Parts» nomli qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish usuli keng tarqalgan bo'lib, unda:

- Kreditning maqsadi – purpose;
- Kreditning hajmi – amount;
- Qarzni to'lash – repayment;
- Muddati – term;
- Kreditning ta'minlanganligi – security kabilar tahlil qilinadi.

Baholash so'ngida umumiy shart-sharoitlarga, xususan, davlatdagi ishbilarmonlik sohasidagi iqlim, bank bilan qarzdorlar holatiga ta'sir etuvchi omillar, mamlakatdagi iqtisodiy holat, monand tovarlar bo'yicha ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatning mavjudligi, soliqlar, hom-ashyoga bo'lgan narx-navolar va boshqa jihatlarga ham e'tibor beriladi.

Ipoteka banki kredit bo'limiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mijoz likvidligini aniqlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar miqdori mijoz kredit tarixi va kredit

loyihasiga qarab o'zgarishi mumkin. Agar mijozning kredit tarixi ijobiy baholansa, barqaror moliyaviy holati va kredit maqsadi murakkab bo'lmasa ma'sul hodim 3 ta koeffitsientni hisoblash bilan cheklanishi mumkin. Bu 3 koeffitsientga likvidlik, qoplash va moliyaviy mustaqillik koeffitsientlari kiradi.

Likvidlik –mijozning o'z vaqtida qarz majburiyatlarini bajara olishidir. Likvidlik koeffitsienti qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan qarzning qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi, ya'ni bu koeffitsientdan mijozning yaqin kelajakda tezkor ravishda bank qarzini to'lab borish qobiliyatini prognoz qilish uchun foydalaniladi. Likvidlik koeffitsienti qancha yuqori bo'lsa, kreditga layoqatlilik shuncha yuqori bo'ladi.

Yuridik shaxsning likvid mablag'laridan koeffitsientlarni hisoblashda foydalaniladi. Likvid mablag'larga quyidagilar kiradi:

3-jadval.

Likvid mablag'larning turlari

	Likvid mablag'larning turlari	Balans satri
I	Birinchi guruh likvid mablag'lari:	
	• Pul mablag'lari	170
	shu jumladan	
	a) hisob-kitob va valyuta schyotidagi pul mablag'lari	180
	b) boshqa schyotlardagi va kassadagi pul mablag'lari	190
	Ikkinchi guruh likvid mablag'lari, ya'ni pulga tez aylanadigan talablar:	
	a) muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar	230
	b) byudjet bilan hisob-kitoblar	240
II	v) ishonchli debitorlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar	200-220
	g) korxonalar bilan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan boshqa operatsiyalar bo'yicha xizmatchilar bilan hisoblashlar	250-270
	d) ta'sischilar hamda boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar	280-290
	Uchinchi guruh likvid mablag'lari, ya'ni tez sotiladigan tovar-moddiy qimmatliklarining zaxiralari bo'yicha talablar:	

a) ishlab chiqarish zaxiralari va kelgusi davr xarajatlari	120
b) tayyor mahsulot	140
v) tovarlar	150
g) boshqa zaxiralar	
Qisqa muddatli majburiyatlarni aniqlashda:	
a) o'zgartirishlar kiritmasdan olinadigan ko'rsatkichlar:	
• qisqa muddatli qarzlar	420
• qisqa muddatli kreditlar	430
• buyurtmachilardan tushgan avanslar	440
Kreditorlar:	
• mol etkazib beruvchilar oldidagi qarzlar	450
• byudjetga qarzlar	460
• ish haqi bo'yicha qarzlar	470
• ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarz	480
• mulkiy va shaxsiy sug'urtalash bo'yicha qarz	490
• byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarz	500
• sho''ba korxonalar bo'yicha qarzlar	510
• uyushma korxonalar bo'yicha qarzlar	520
• boshqa kreditorlar	530
b) o'zgartirishlar kiritib olinadigan (yaqin uch oy muddatga) ko'rsatkichlar:	
• uzoq muddatli qarzlar	400
• uzoq muddatli kreditlar	410

Mijoz balans va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kreditga layoqatlilikning quyidagi ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin:

$$K_{KL} = \frac{\text{1 va 2 guruh likvid mablag'lar}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatlari}}$$

Qoplash koeffitsienti mijoz qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barcha turdagi aylanma mablag'larning yetarliligini hisoblashga yordam beradi:

$$K_{QQ} = \frac{\text{1, 2 va 3 guruh likvid mablag'lari}}{\text{Qisqa muddatli qarz majburiyatlar}}$$

Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti (K_{mb}) mijozning o'z mablag'lari bilan moliyalashtirish manbalari tarkibida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu ko'rsatkich korxona faoliyatining qaysi bir qismi o'z kapital hisobidan moliyalashtirilgan degan savolga javob beradi va quyidagi-cha hisoblanadi:

$$K_{mb} = \frac{KK}{BC} \cdot 100$$

$$K_{MB} = \frac{\text{Korxonaning o'z kapitali}}{\text{Balans summasi}}$$

4-jadval

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga qarab mijozlarni sinflarga ajratish bo'yicha talablar

№	Ko'rsatkichlar	I sinf	II sinf	III sinf
1.	Likvidlik koeffitsienti (K_L) yoki	$K_L \geq 1,5$ $K_L \geq 2,0$	$1,5 > K_L \geq 1,0$ $2,0 > K_L \geq 1,25$	$1,0 > K_L$ $1,25 > K_L$
2.	Qoplash koeffitsienti K_q	$K_q \geq 2,0$ $K_q \geq 7,0$	$2,0 > K_q \geq 1,0$ $7,0 > K_q \geq 2,0$	$1,0 > K_q$ $2,0 > K_q$
3.	Moliyaviy barqarorlik koef-fitsienti K_{mb}	$K_{mb} \geq 60\%$ $K_{mb} \geq 60\%$	$60\% > K_{mb} \geq 30\%$ $60\% > K_{mb} \geq 5\%$	$K_{mb} < 30\%$ $K_{mb} < 25\%$

Agar mijoz II sinfga taalluqli bo'lsa va uning boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari ijobiy bo'lsa, unga umumiy asosda kredit berilishi, ba'zi engilliklar qo'llanilishi mumkin. Agar qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar bo'lsa, uning moliyaviy ahvoli nobarqaror deb topilishi va uni yaxshilash uchun choralar ko'rishni talab qilish, kredit bo'yicha garovni mustahkamlash, foiz stavkalarini oshirish, kredit summasini va muddatini cheklash choralarini ko'rish mumkin.

III sinfga kiruvchi mijozlar aniq garov va yuqori foiz stavka asosida kredit oladi.

Misol sifatida «Mosmek» korxonasining balans ma'lumotlariga asoslanib mijozning kreditga layoqatliligini aniqlaymiz

5-jadval

«Mosmek» korxonasi likvid mablag'lari

№	Ko'rsatkichlar	Ming so'm		%
		Bazis davr	Joriy davr	
1.	Likvid mablag'lar	109 627	138 991	126,8
	a) pul mablag'lari	2474	11313	457,3
	b) tez sotiladigan talablar	25606	62286	243,2
	v) tez sotiladigan zaxiralar	81 547	65392	80,2
2.	Majburiyatlar - jami sh.j.:	236136	250464	106,1
	a) Qisqa muddatli majburiyatlar	51107	61179	119,17
3.	o'z mablag'lar manbalari	185029	189285	102,3
	a) ustav kapitali	169181	169181	100,0
	b) rezerv kapitali	503	503	100,0
	v) taqsimlanmagan foyda	15345	19601	127,7
4.	Uzoq muddatli aktivlar	126509	111473	88,1
5.	Aylanma mablag'lar:			
	a) jami, sh.j.	109627	138991	126,8
	b) o'z aylanma mablag'lar (3-4)	58520	77812	132,9
	v) aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i	54813	69496	126,8
6.	Sotilgan mahsulot hajmi	234949	291256	124,0
7.	Tahlil qilinayotgan davrdagi kunlar	360	360	-
Koeffitsientlar				
	• Balans likvidligi (1:2)	0,46	0,55	119,6
	• Qoplash koeffitsienti (1:2a)	2,15	2,27	105,6
	• Likvidlik koeffitsienti • (1 qatorning a+b)/2	0,55	1,20	2,18
	• Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti (3:2)·100	78,3	75,5	96,4
	• O'z aylanma mablag'larining salmog'i (5b:5a)	53,4	56,0	104,9
	• Aylanish koeffitsienti			
	a) so'mda (6:5v)	4,3	4,2	97,7
	b) kunda (5v · 7:6)	84	86	102,4

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin, ya'ni korxona balansi likvidligi nuqtai nazaridan ijobiy, chunki bazis davrda balans likvidligi 46 foizni tashkil etadi, bu ko'rsatkich esa joriy davrda 55 foizni tashkil qilgan. Tahlil qilingan davrda bu ko'rsatkich 9 punktga oshgan.

Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, yurituvchi sub'ektlarning likvid mablag'lari qisqa muddatli majburiyatlaridan kamida ikki barobar ortiq bo'lgan taqdirdagina uning moliyaviy ahvoli yaxshi deb hisoblanadi. Bu yuqori mezon chegarasidir. Bizning misolimizda bu nisbat bazis davrda 2,1 baravarni (1:2a, ya'ni, 109627:51107) joriy davrda esa 2,3 baravarni tashkil qilgan.

Qoplash koeffitsienti bazis davrda 2,15 ni, joriy davrda esa 2,27 ni tashkil qilib mijozning birinchi sinfga taalluqliligini ifodalayapti. Likvidlik koeffitsienti tegishli davrlarda 0,55 va 1,2 ni tashkil qilib bazis davrda mijozning uchinchi sinfga mansub ekanligini ifodalasa, joriy davrda u ikkinchi sinfga ko'tariladi. Bunday hollarda mijozning sinfi bo'yicha aniq bir xulosaga kelish uchun faqat bir yillik davr emas ko'proq davrni, shu bilan bir qatorda boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlarni ham tahlilga jalb qilish zarur.

Misolimizda moliyaviy barqarorlik koeffitsienti bazis davrda 78,3 foizni, joriy davrda esa 75,5 foizni tashkil qilib shu davr ichida bu ko'rsatkich 2,8 punktga kamaygan. Ammo bu kamayish mijozning sinfiga o'z ta'sirini o'tkazmagan. Natijada mijoz birinchi sinfdaligicha qolgan.

Bazis davrda o'z aylanma mablag'larining hajmi 58520 ming so'mni, joriy yilda esa 77812 ming so'mni tashkil qildi. Bu holat mijozning likvid balansga ega ekanligidan dalolat beradi, chunki o'z aylanma mablag'lari hajmi shu davr ichida 19292 ming so'mga ortgan. Uzoq muddatli aktivlar esa shu davr ichida 15036 ming so'mga kamaygan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, kuzatilayotgan korxonada aylanma mablag'larining aylanish koeffitsienti bazis davrda 4,3 marta aylangan bo'lsa, joriy davrda bu ko'rsatkich 4,2 martani tashkil qilgan. Demak, aylanish sur'ati birmuncha kamaygan. Aylanma mablag'larning kunlarda aylanishi bazis davrda 84

kunni tashkil etgan bo'lsa, joriy davrda 86 kunga teng bo'lgan. Bu aylanma mablag'larning aylanishi tezlashganligidan dalolat beradi.

3.2. Ipoteka bankining to'lovga layoqatlilikning mohiyati va asosiy ko'rsatkichlari

Mohiyatan bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'la-to'kis bajara olish qobiliyatidir²¹.

«Likvidlik» atamasi lotincha “Liquidus”-oquvchan, suyuqlik ma'nosini anglatadi. Shularni hisobga olgan holda jahon banki nazariyasi va amaliyotida likvidlikni „zahira” yoki «oqim» deb tushiniladi²². Likvidlik zahira shaklida Ipoteka bankining mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan vaqt mobaynida aktivlar tarkibini ularning hali ishlatilmagan rezervlariga aylantirish yo'li bilan qoplashni ko'zda tutadi. Likvidlikning «oqim» shakliga dinamik nuqtai nazardan qaraladi, ya'ni tijorat bankining ma'lum vaqt mobaynida yuzaga kelgan noqulay tushib ketishdan aktiv va passivlarning mos moddalarini, qo'shimcha zayom mablag'larini jalb qilish va bank moliyaviy barqarorligini daromadlarni o'stirish yo'li bilan saqlash yo'llari qo'llaniladi.

Ipoteka bankining samarali faoliyat olib borishi uchun eng avvalo u likvidligini barqaror saqlashi lozim. Agar likvidlik pasayib ketsa bank to'laqonli faoliyat olib bora olmaydi. Aynan nolikvidlik bank tizimini beqarorlashtirishiga olib keluvchi asosiy sabablardan biridir.

Ipoteka bankining likvidligi tushunchasi - bu bankning barcha mijozlari oldidagi qarz va moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishidir. Bank likvidligi bank o'z kapitalining etarliligi, uning optimal joylashtirilganligi va balansning aktiv va passiv qismlaridagi mablag'larning vaqt oralig'ida muvofiqligi bilan aniqlanadi.

Bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism o'rtasidagi doimiy sub'ektiv mutanosiblikni saqlashdan iboratdir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablag'lar va joylashtirilgan mablag'lardir. Bu

²¹ Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в коммерческом банке. -Москва.: 2008, стр. 209

²² Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в коммерческих банках. Москва.: 2007, стр.247

mutanosiblik esa, yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ipoteka bankining moliyaviy holatiga baho berishda uning foydaliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligiga e'tibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning ahvoli qay darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi nafaqat bitta bank yoki bank tizimining muvozanatligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Bank faoliyati tizimida eng avvalo, banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi ko'rib chiqiladi, chunki, foydalilik faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qobiliyatlik kengroq, ya'ni jamiyatning ko'pchilik qatlami manfaatlarini ko'zlaydi.

Shunday qilib, o'z likvidligini saqlash uchun Ipoteka banki mustaqil harakat qilishi kerak. Bu bank faoliyatini tahlil qilish, prognoz qilish va ustav kapitali, maxsus fondlar va zahiralar, jalb qilingan mablag'lar, aktiv kredit operatsiyalarini amalga oshirishni tashkil qilishda ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat olib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ipoteka banki faoliyati davomida uning aksionerlari bo'lgan keng doiradagi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning mulk va boshqa iqtisodiy manfaatlarini ko'zda tutilgan uchun tijorat banki faoliyatini yuritishga litsenziya bergan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki banklar ishining barqarorligini iqtisodiy hamda ma'muriy usullar yordamida boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli «Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta'rif berilgan²³.

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lovga qobiliyatlik likvidlikka nisbatan ham keng, ham tor kategoriya sifatida ko'riladi. Keng kategoriya sifatida o'rganilganda

²³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli «Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi nizomi.15-bet

to'lovga qobiliyatlilik ichki va tashqi omillar doirasida ko'rib chiqiladi, likvidlik esa, faqat ichki omillar doirasida qaraladi. Ba'zi qarashlarga ko'ra, likvidlik bankning dinamik holatini belgilaydi, to'lovga qobiliyatlilik esa, ma'lum bir sanaga belgilangan to'g'ri keluvchi

holatni, ya'ni majburiyatlarini qoplay va to'lay olish qobiliyatini bildiradi.

Umuman, to'lovga qobiliyatlilik bankning zarur muddatlarda qarz va majburiyatlarini to'lay olish layoqatini bildiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, likvidligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan likvidlik to'lovga qobiliyatsizlikning asosiy sababi bo'lib, ularni bankrot va bank tizimining beqarorligiga olib kelishi mumkin. Buni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yaqqol misol bula oladi. Prezidentimiz o'zlarining ma'ruzalarida «2011 yilda banklarning kapitallashuvi, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlashga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining yetarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan uch barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, «Standart end Purs», «Mudis» va «Fitch Reytings» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda «barqaror» reyting darajasini bermoqda.

Agar 2010 yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki «barqaror» reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga etdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda» deb ta'kidlaganlar²⁴.

²⁴I.A.Karimov 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi(“Xalq so'zi” gazetasi, 2012 yil 20 yanvar, №14 (5434))

Bankining likvidliligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablag'lariga aylantirilishi lozim. To'lovga layoqatsizlik esa, faqat balans likvidliligiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liqdir.

1983 yilda qabul qilingan va 1993 yilda o'zgartirishlar kiritilgan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tashabbusi bilan yuzaga kelgan Bazel bitimi bank likvidligi bo'yicha umumiy qoidalarni belgilab berdi. Ushbu bitimga muvofiq, likvidlikni tahlil qilish banklarning o'z majburiyatlarini muddatidan va zarar ko'rmagan holda bajarish qobiliyatini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Banklarning likvidligi hamda to'lovga qobiliyatliligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashga asos hisoblanadi. Bazel bitimi standartida ko'plab davlatlar o'z banki tizimi uchun likvidlilik me'yorlarini ishlab chiqqan.

O'zbekiston bank tizimida likvidlilikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari shaklida saqlash hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra to'lovga qobiliyatlilik o'z kapitalining ijobiy kattaliliga bog'liqdir. Bunga muvofiq to'lovga qobiliyatlilik bank kapitaliga asoslanadi, ya'ni bank kapitali majburiyatlarni to'lash kafolatiga ega fond hisoblanadi.

Umumiy likvidlilikni baholashda tijorat banklari asosiy likvidlilik, joriy likvidlilik va istiqbolli likvidlilikni bir tizimda tahlil qilishlari lozim.

Bank zarur bo'lganda yoki moliyaviy bozorda qarzlarni olish yoki banklararo bozordan kreditlar olish hisobiga likvidlilikni ta'minlashi mumkin. Ba'zi hollarda tijorat banki balansi likvid bo'la turib, mijozlar talablari bajarilmasligi mumkin. Shuning uchun e'tiborni balans likvidliligiga emas, ko'proq bank likvidliligiga qaratish o'rinli bo'ladi.

Ipoteka banki barqaror holatining asosi bo'lib, uning moliyaviy barqarorligi xizmat qiladi. Moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir

ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotlarini o'tkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rin tutadi. Bu esa, samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro'sining mustahkamlanishiga imkon beradi.

Bankning ichki barqarorligi - bu tijorat banki faoliyatining barqaror, yuqori natijalarni ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasidir. Ichki barqarorlikka erishish asosida ichki va tashqi omillar o'zgarishiga faol javob berish tamoyili yotadi.

Bankkga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat miqyosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi.

Bankning moliyaviy mustahkamliligi tahlili asosida bank moliyaviy mustahkamligi belgilari, holati o'zgarishining izchilligini o'z ichiga olgan trendni tadqiq qilish, uning turli belgilari o'zgarishlari o'rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini aniqlash yotadi. Bu moliyaviy mustahkamlik trendini tadqiq qilish uchun bank moliyaviy holatining bir necha yillik ko'rsatkichlarini taqqoslash lozimligini bildiradi.

Bu retrospektiv tahlil bilan birgalikda perspektiv tahlilni amalga oshirish mumkinligi va zarurligini, jumladan moliyaviy holatning keyingi davrdagi prognoz qilishni va moliyaviy mustahkamlik rivojining umumiy trendini aniqlash lozimligini yuzaga keltirdi.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini o'rganishdagi boshlang'ich jihat Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatiga qo'yadigan tartibga soluvchi talablaridir.

Ipoteka bankning moliyaviy mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ushbu talablarning samaradorligi mazkur mamlakat iqtisodiyoti, ishlab chiqarish va xizmat sohasining, jumladan, bank infratuzilmasining rivojlangan mamlakatlarda

shakllangan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tartiblarini o'rganish, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tartibini takomillashtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

Retrospektiv tahlil. Tahlilning ushbu yo'nalishida Markaziy bank tomonidan banklar uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari va belgilarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning ushbu yo'nalishi quyidagi sohalar: likvidlilik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning etarliligi va boshqarishning sifati tahlillaridan iborat.

Perspektiv tahlil. Moliyaviy barqarorlikni perspektiv tahlil qilishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognoz qilish hisoblanadi.

Bank moliyaviy barqarorligini baholash moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'luvchi moliyaviy holatni tahlil qilishdan boshlanadi. Shunga muvofiq, moliyaviy tahlilning ketma-ketligi, barcha jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqishni, jumladan, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

To'lovga qobiliyatlikni nafaqat tashqi ko'rinish, balki ma'lum bir vaqtda va moliyaviy mustahkamlikning barcha omillari ta'sirida hosil bo'lgan ma'lum moliyaviy holatning natijasi deb qarash lozim.

Likvidlik keng ma'noda qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi hisoblanadi. Likvidlik iqtisodiyotning barcha sohaları uchun xarakterli bo'lib, shu bilan birga o'ziga xos bank muammosi hisoblanadi. Chunki, pul bir vaqtning o'zida bankning ham aylanma kapitali, ham faoliyati mahsuli bo'lib, korxonalar aktivi esa asosan natural buyum shaklida mavjud bo'ladi.

Bank likvidligi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talablarini qondira olish qobiliyatidir. Bundan tashqari likvidlik bankning bozorda xavfsizligi va qarzlarini o'z vaqtida qaytara olishga qodirligini oshkor qiladi, bankka aktivlarni foydasiz sotish yoki banklararo bozorda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan foydani yo'qotish xavfidan qutulish imkonini beradi.

Likvidlikning asosiy sharoitlaridan biri, uning aktivlar likvidligidir.

Likvid aktivlar - ularning yaxshi ma'lum bo'lgan bozor narxining shakllanishini ta'minlaydigan doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlarning alohida turi bo'lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo'lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa muddatli (etti kungacha) banklararo kreditlar kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan davlatlarining mashhur transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.

Nolikvid aktivlar deb, bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'lmagan va bu turdagi aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytiladi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi taqqoslashni qiyinlashtiradi. Bu turdagi aktivlarga, masalan, kreditlar, qimmatli qog'ozlar bozorida kotirovkaga ega bo'lmagan yoki kotirovkasi qiyin bo'lgan qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zarur bo'lganda bank ularni zarar ko'rgani holda sotishi mumkin.

Bank likvidligining yana bir jihati bankning to'lovga qobiliyatliligi bo'lib, uning asosiy belgisi bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatidir.

“Likvidlik” va “to’lovga qobiliyatlilik” mazmuni, omillari va uni ta’minlovchi sabablarga ko’ra bir-biriga yaqin tushunchalardir. Likvidlik muammosi tashqi jihatdan to’lov majburiyatlarini bajarish jarayonida vujudga keladi va likvid mablag’lar yo’qligi bilan bog’liq qiyinchiliklar tug’ilganda namoyon bo’ladi.

Likvidlik nafaqat to’lovlarni o’z vaqtida amalga oshirishni nazarda tutadi, balki o’zining tijorat manfaatlari bilan birga omonatchilar tomonidan ishonch bildirilgan mablag’larning saqlanishini ta’minlaydi.

Bankning to’lovga qobiliyatliliigi bankka qo’yilgan to’lovlar bo’yicha talablar ayni vaqtda qondira olish qobiliyatini bildiradi. To’lovga qobiliyatlilikni ma’lum moliyaviy holatning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, to’lovga qobiliyatlilik likvidlikka nisbatan ikkilamchidir. Chunki, bankda to’lovga qobiliyatlilik muammosi sodir bo’lishi mumkin, ammo uning likvid balansi, bankning majburiyatlarini o’z vaqtida bajara olishini ta’minlovchi qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligi ko’proq bank balansining likvidligi bilan belgilanadi va uning mazmuni, mohiyati aktiv va passiv operatsiyalarning muddati bo’yicha mos kelishidan iborat. Bank balansining likvidligi ssuda va fond operatsiyalariga yo’naltirilgan mablag’larning xatarlilik darajasi, pul bozorining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog’liq bo’ladi.

Bundan tashqari, passivlarning qisqa muddatliligi uzoq muddatli qo’yilmalarga ham sarflanishi imkoniyatlarini cheklab qo’ymaydi. Bankning har doim o’z tasarrufida ma’lum miqdorda “begona” pullari bo’ladi. Omonatlarning bankka doimiy oqib kelishi bilan birga ularning qaytarilib olinishi ham doimo sodir bo’lib turadi va bunda bank hisobvaraqaalarida doimiy turib qoladigan qarz mablag’lari miqdori barqaror hisoblanadi.

Ipoteka banki likvidligini saqlab turish muammosini hal qilish uchun passivlar oqimi harakatchanligi va muddatiga ko’ra aktivlar oqimiga mos kelishi lozim.

Shunday qilib, likvidlik bankning ma’lum vaqtdagi to’lovga qobiliyatliliigini

ta'minlovchi va bank likvidligining asosiy omili bo'lgan bank aktivlari va passivlarining nisbati bilan belgilanadi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank passivlarining sifatidir. O'zlik va jalb qilingan mablag'lar nisbati bankning ishonchliligi va faoliyati rivojlanishining istiqbolini xarakterlab beradi. Jalb qilingan mablag'lar oqimining barqarorligi likvidlik muammosini hosil qilmasdan turib, qisqa muddatli resurslarni uzoq muddatli qo'yimalarga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Depozitlar bo'yicha ijro muddatining aniqligi balansning likvidligini boshqarish va likvid vositalarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish imkoniyatini beradi. Bu esa bank barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Likvidlikni ta'minlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, o'z aktivlarini sotish yo'li bilan yoki o'z majburiyatlarini bajarish uchun mablag' topa olish imkonini beradigan pul bozorining mavjudligidir. Asrimizning 60-yillarida bu omilning roli nihoyatda ortdi. Bunga sabab, erkin muomalada bo'lgan federal depozit sertifikatlari, federal fondlarning qisqa va uzoq muddatli qimmatbaho qog'ozlari, REPO bitimlarining keng qo'llanilishi va buning natijasida balansda foyda keltirmaydigan va kam daromadli aktivlarning to'planishi bilan bog'liq bo'lgan foyda yo'qotilishini minimallashtirish imkoniyatiga ega bo'linganligidir.

Ipoteka bank moliyaviy barqarorligining yana bir komponenti bank faoliyatining foydaligidir.

Bank foydasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar ishlab chiqarish sohasida xarajatlar o'zgaruvchan kapital va qisman qo'shimcha qiymat hisobidan qoplansa, banklarda esa muomala xarajatlari to'la, faqatgina qo'shimcha qiymat qismidan qoplanadi.

Foyda olish - bank faoliyati ko'lamini kengaytirish manbalaridan biridir. Agar, bank ishida kapitalga daromad boshqa tijorat tashkilotlariga nisbatan past bo'lsa, kapital qo'llash foydaliroq bo'lgan boshqa sohalarga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, foyda rahbariyat faoliyatini rag'batlantiradi, chunki ular operatsiyalar hajmini oshirish va takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va

xizmatlar sifatini oshirganliklari uchun foydaning bir qismini mukofot shaklida olishlari mumkin.

Ipoteka bankining zararsiz faoliyati uning moliyaviy asosini mustahkamlaydi va aksincha uzoq muddat mobaynida zarar bilan faoliyat ko'rsatish bankni bankrotlikka olib borishi mumkin.

Bank faoliyatining foydaliligi rentabellikning muhim ko'rsatkichlari majmui bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarga: kapitalga foyda me'yori, yalpi aktivlarning daromadliligi va foydaliligi, sof foiz marja, foizsiz yuk, aktivlar tizimi va "ishlovchi" aktivlar salmog'i, passivlar tizimi va to'planadigan passivlar salmog'i, ishlovchi aktivlarning daromadliligi, foizli tashlanma kiradi.

Ichki tahlil nuqtai-nazaridan faoliyatning moliyaviy ishonchliligi va rentabellik tahlili juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotida mavjud bo'lib turgan ma'lum darajadagi inflyatsiya sharoitida foydalilik tahlilining dolzarbligi yanada oshadi.

Ipoteka banki foydasini kamaytirishga sabab bo'luvchi omillarga quyidagilar: balansning nolikvidligi, bunda likvidlik kamomadini to'ldirish uchun qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish zarurati tug'iladi; depozitlarning barqaror emasligi; inflyatsiyaning o'sishi va bu orqali tartibga soluvchi talablar jumladan, yuqori majburiy zahiralar talabi ta'siri ostida bo'lgan foiz marjasining pastligi; daromad keltiruvchi aktivlarning noqulay strukturasi, jumladan, kam daromad keltiruvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, foizsiz ssudalar salmog'ining yuqoriligi va to'lovli passivlar. Masalan, resurslar tarkibida bahosi yuqoriroq bo'lgan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar salmog'ining yuqoriligi; foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning salbiy nisbati; ma'muriy-xo'jalik xarajatlarining maqsadga muvofiq bo'lmagan yuqori darajasi; kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining yuqoriligi va berilgan kreditlarning foydalanish hamda qaytarilish muddatlarini uzaytirish bilan bog'liq yo'qotishlar; qimmatbaho qog'ozlar qiymatining tushishi; soliqlar darajasining yuqoriligi; muvozanatlashtirilmagan foiz siyosati; hajmi va miqdori jihatidan o'z kapitali miqdorini chegaralovchi

asoslanmagan yuqori darajada xatarli bo'lgan bank faoliyatini yuritish kiradi.

Tadqiqot obyekti bo'lgan Ipoteka banki joriy likvidlik me'yorlarini bajarishi lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidlik aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak, ya'ni bankning joriy likvidligi:

$$\text{Joriy likvidlik} = \text{JA} : \text{OV}$$

JA- qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan joriy aktivlar va kreditlar

OV- qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan talab qilib olingunga qadar bo'lgan majburiyatlar.

Lahzali likvidlilik koeffitsienti. Bu koeffitsient bankning yuqori likvid mablag'larining (bular- bankning g'aznasidagi naqd pul mablag'lari va vakillik hisobvaraqaqidagi mablag'lar) joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy to'lovlarni tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga talab qilib olingunga qadar bo'lgan depozitlar bo'yicha majburiyatlar, yaqin orada to'lanishi lozim bo'lgan boshqa banklardan olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlar va boshqalar kiradi. Shunday qilib,

$$M_z = \text{LA} : \text{JM}$$

Bu yerda:

LA- bankning pul shaklidagi aktivlari,

JM-bankning talab qilib olingunga qadar bo'lgan varaqalar bo'yicha majburiyatlari.

Bu me'yor bank aktivlarining likvid qismi bankning eng nobarqaror resurslarini qanchalik darajada sug'urtalay olish imkonini ko'rsatadi. Shuning uchun maqsadli likvidlilikni banklar har kuni tekshirib borishlar va uning minimal miqdori 0,25 dan kam bo'lmasligini ta'minlashlari lozim.

Qisqa muddatli likvidlilik koeffitsienti to'lov muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlarining bankning muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan depozitlari va jalb qilingan mablag'lari va kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni

$$M_5 = A/D + K,$$

Bunda:

A- to'lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari;

D- muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va jalb qilingan resurslar;

K- bank kapitali.

Bu ko'rsatkichning hajmi 1 ga teng bo'lishi zarur.

Undan tashqari, Ipoteka banki likvidliligini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinishi mumkin.

1.Likvid aktivlar (zahiraning ortiqcha qismi, erkin ayirboshlanadigan valyuta boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari).

2.Doimiy bo'lmagan majburiyatlar (yirik depozitlar, ma'lum manbalardan olingan qarzlar).

3.Yuqorida keltirilgan barcha ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotni aks ettiradi — ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi bankning resurslar barqaror bo'lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvidli aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

4.Kreditlar, depozitlar — depozitlarning, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror manbaidir. Ko'rsatkichning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va/yoki o'sishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingan qisqa muddatli qarzlar) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi.

5.Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar. Jami qimmatli qog'ozlar — garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u likvidlilikka tezkor talablarni qoplash uchun qo'llanilmaydi.

Fransiyada tijorat banklarining likvidliligini baholashda ishlatiladigan koeffitsientlari umumiy talab qilib olingunga qadar muddatli depozitlarning (3 oygacha bo'lgani) va boshqa resurslarning aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi. U yerda bu koeffitsientning hisoboti nazorat organlariga har kvartalda taqdim etiladi. Bu koeffitsient 60% dan kam bo'lmasligi kerak²⁵.

3.3. Ipoteka banki to'lovga layoqatliligini takomillashtirish yo'llari

Ipoteka bankida to'lovga layoqatlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatlari hal etishi uchun aktiv va passiv operatsiyalarning bir paytda samarali boshqarilishiga bog'liq. Har kanday bank aktiv operatsiyalarini o'tkazishi uchun pul resurslariga ehtiyoj sezadilar²⁶. Ularni passiv operatsiyalarni amalga oshirish oqali jalb etish mumkin. Shundan so'ng bank belgilangan muddatlarda o'zining qarz majburiyatlarini qoplab borishi zarur. Qarz majburiyatlarini qoplash uchun Ipoteka bank foyda olib ishlashi va bunda to'lovga layoqatlilikning maqbul darajasini saqlab turishi hamda likvidlilikni ta'minlashi kerak.

Shu bilan aktiv va passiv operatsiyalarni, shuningdek, likvidlilikni o'zaro va kompleks boshqarish zaruratini izohlash mumkin.

Ipoteka banki likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun turli depozit va omonatlardan foydalanadilar. Bunda depozit bazasining barqarorligini talab qilib olingungacha saqlanadigan depozitlar va jamg'arma omonatlari hisobidan ta'minlash ko'zda tutiladi. Bundan tashqari boshqa kredit institutlaridan kredit olish bilan ham majburiyatlarning bajarilishi uzluksizligi va to'lovga layoqatlilikni bir me'yorda bo'lishi ta'minlanadi.

Yuridik shaxslarga kredit berish bankning moliyaviy taxlili natijalariga qarab belgilanadi. Ipoteka bank kredit summasini O'z mablag'lari, mijozlarning hisobraqamlaridagi va omonatga qo'yilgan mablag'lar hisobidan mijozlarga taqdim etadi.

Agar likvidlik muammosi yuzaga kelish xavfi paydo bulsa, bank kredit

²⁵ Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009, с.327

²⁶ Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в коммерческих банках. Москва.: 2007, стр. 309

xizmatlarini ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turishi, kreditlarni qoplash muddatlarini qayta ko'rib chiqishi yoki muddati o'tgan kreditlar va qarz majburiyatlarini qaytarilishi bo'yicha choralar ko'rishi mumkin. Ipoteka banki doimiy ravishda o'zining nolikvid aktivlarini likvidliligi yuqori bo'lgan aktivlarga aylantirib borish bilan faoliyat ko'rsatib kelmokda. Bunda bankning uy-joy qurib ularni mijozlarga sotish yo'li ancha samara berib kelmokda.

Ipoteka banki uchun asosiy o'rinda aktiv operatsiyalarni boshqarish tursada, shu bilan bir qatorda passiv operatsiyalarga ham yetarlicha e'tibor qaratiladi. Bu bilan kerak vaqtda vaziyatdan optimal tarzda chiqib ketishga imkoniyatlar yaratib quyiladi. Buning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, bank likvidlilikni va to'lovga qobiliyatni doimiy ravishda ta'minlab keladi. Chunki ushbu ko'rsatkichlarni yaxshilash va kerakli darajada ushlab turish uchun tezkor chora-tadbirlarning qo'llanilishi bank xarajatlarini ko'paytirib, bank daromadini kamayishiga sabab bo'ladi.

Mijozlarga kredit berish bilan bank o'zining to'lovga qobiliyatini ham riskka qo'yadi. Shu sabab mijoz kredit tarixini o'rganish majburiy bo'lib, muammoli kreditlarning yuzaga kelishini oldini olishning ishonchli yo'llaridan biri hisoblanadi.

Har bir bank qatori Ipoteka banki ham bank omonatchilarini himoyalash maqsadida har oyda Markaziy Bank majburiy zaxirasiga ajratmalar ajratadilar. Bunda 3 yil muddatgacha qabul qilingan depozitlardan 20 foiz, 3 yildan ortiq muddatlarga qabul qilingan depozitlar uchun 10 foiz miqdorida ajratmalar ajratilishi majburiydir.

Ipoteka bankda to'lov qobiliyatini barqarorligini ta'minlash maqsadida maxsus fond ham tashkil etilgan. Bu fondlarda saqlanayotgan pul mablag'larini kredit berishga sarflanishi likvidlik muammosi yuzaga kelganda uzining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Kredit berishda qabul qilinayotgan garovni baholashda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hisobiga, shuningdek garovga qo'yilgan mol-mulkning baxosi

uzgarib turishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Kredit monitoringi vaqtida barcha yukorida keltirilgan xolatlarni hisobga olib nazoratni olib borish kerak.

Ipoteka banki uz xodimlarining bilim darajasini va malakasini oshirib borishga ham aloxida e'tibor karatib kelmokda. Har xaftada bir marotaba xar bir bulim uchun malakani oshirish, kasbiy kunikmalarni yaxshilash va xafta davomida yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni tuzatish yo'llarini xodimlarga kursatish uchun ukuv mashgulotlar olib boriladi.

Muammoli kreditlar va to'lov qobiliyatining pasayishiga bir mijozga katta miqdorda kreditlar berish yoki depozit omonatini qabul kilish ham sabab bulishini unutmazlik kerak. Buning uchun kredit miqdori ham depozit miqdori ham qat'iy belgilanishi maqsadga muvofik. Ustav kapitalining etarli bulishi ham aloxida ahamiyat kasb etganligi sababli Markaziy bank minimal ustav kapitalini belgilab qo'ygan.

Xulosa va takliflar

Bank tizimini iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlash, jahon andozalari darajasiga olib chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalarida biriga aylanib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» kitobida quyidagi fikmi bildirganlar: «Jahon iqtisodiy inqirozi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi²⁷». Bank tizimida yuridik shaxslarga kreditlar berish bank kredit xizmatlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Shu sababli, tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hisobi va tahlilini to'g'ri tashkil qilish hamda xalqaro tajribalar talablariga yaqinlashtirish maqsadida mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi natijasida bank tizimida ham Ipoteka banki faoliyatida ham muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Natijada Ipoteka bankida kredit operatsiyalarining xususan tijorat banklarida yuridik shaxslarga kreditlar berishning mukammal mexanizmini ishlab chiqishni va o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'zlashtirishlarni taqozo etdi. Bu esa, banklar tomonidan kutiladigan daromadning hajmini oshirishga zamin yaratadi;

Ipoteka bankida yuridik shaxslarga kreditlar berish faoliyatini amalga oshirish va ularning tarkibini mukammallashtirish. Shu orqali bank xizmatlari ko'rsatish sifat va samaradorligi oshirish. Buning uchun jahondagi yetakchi banklar tajribasidan mamlakatimizdagi shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni hisobga olgan holda holda foydalanish;

Ipoteka banki kredit bo'limida ishlovchi hodimlarning kasbiy mahorati va bilim darajasini oshirish. Shu maqsadda doimiy ravishda o'quv mashg'ulotlari o'tkazish. O'quv mashg'ulotlarida:

- Ma'sul hodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarning mohiyati va ularni aniqlab bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berish, tushuntirish;

- Bank kreditlarini berish bo'yicha qilingan ilmiy yangiliklar va ularning mazmuni bilan tanishtirish;

²⁷ I.A. Karimov. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» 2008-yil. 23-bet

- Respublika qonunchiligidagi o'zgarishlar va ularning bank kredit xizmatlarini ko'rsatishga ta'siri hamda uning namoyon bo'lish shakllari;

Ipoteka bankida yuridik shaxslarga kreditlar berishni amalga oshirishda ularning buhgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish, buhgalteriya hisobining milliy hamda xalqaro standartlari, shuningdek, tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarga kreditlar berish va uning hisobini tashkil qilish to'g'risidagi yo'riqnoma va nizom talablari asosida tartibga solinishi lozim;

Tadqiqot obyekti bo'lgan Ipoteka bankida yuridik shaxslarga kreditlar berishni hujjatlashtirish mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarning naqadar to'g'ri va aniqligi bilan izohlanadi. Bunda, mijozdan olinayotgan hujjatlar to'plamida ularning moliyaviy xo'jalik faoliyatini ob'ektiv baholash imkoniyatini beruvchi auditning xulosasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bank ayrim turdagi So'ng kredit bo'limi va komissiyasi chiqargan xulosasiga binoan, kredit shartnomasini qonuniy va me'yoriy hujjatlarda qo'yilgan talablarga asosan rasmiylashtirish talab etiladi.

Ayrim holatlarda Ipoteka bankida kredit resurslariga bo'lgan talabning ko'payishi natijasida Markaziy bank tomonidan resurlar kredit shartnomasiga asosan ajratiladi. Bunda bank tomonidan olingan kredit resurslari shartnoma shartlariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Ushbu olingan kredit resurslar bo'yicha xarajatlar hisobi (53101, 53106, 54101, 54106 hisobvaraqlarida) bankning Markaziy bankdan olingan (qisqa va uzoq muddatli) kreditlarning buhgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Chunki olinayotgan resursdan qanday natija (42201, 42201, 42601, 44301, 44601 hisobvaraqlari bo'yicha) ko'rilishi muhim xisoblanadi. Shu boisdan, ushbu resurslar bo'yicha foiz to'lovlari va asosiy summaning o'z vaqtida qaytarilishi hamda markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining me'yorini ham muhim deb hisoblaymiz;

Tijorat banklari va Ipoteka bankida yuridik shaxslarga kreditlar berish faoliyatining buhgalteriya hisobi metodikasi har tomonlama o'rganildi. bunda tijorat banklarida yuridik shaxslarga kredit xizmatini ko'rsatishda mijozlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda samarali va oddiy bo'lgan «an'anaviy usullar»dan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. chunki ushbu usul kredit oluvchi mijoz va bank hodimlarining hisob-kitob ishlarini amalga oshirishda yengillik tug'diradi;

Ipoteka banki tomonidan yuridik shaxslarga berilayotgan kredit (muddatlari bo'yicha)larga berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahiralarini

(12109,12599,012799,13099,13199, 14799,14999,15199,15599 hisobvaraqlar) tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblandi va ularni har bir kreditning turi bo'yicha alohida tashkil qilish lozim.

Yuridik shaxslarga kreditlar berish hajmini kengaytirish va olinadigan daromadning hajmini oshirish uchun kredit resurslari bazasini shakllantirish asosiy o'rinda turadi. Ushbu vazifani hal etishda bank hodimlaridan yuqori malaka va ishbilarmonlikni talab qiladi. Bunda, banklar- ning likvidli mablag'larini boshqarish murakkab bo'lib, uning mohiyati quyidagi bilan izohlanishi mumkin: likvid mablag'larga talab kamdan-kam holatlarda ularning ma'lum bir vaqtdagi taklifiga teng bo'ladi. Bank likvid mablag'larning kamomadi yoki ularning keragidan ortiqchaligi bilan ishlashiga to'g'ri keladi; bankning likvidliligi va daromadliligi orasida farqlar mavjud. Bank resurslarining ko'p qismi likvid mablag'larga bo'lgan talabni qondirish, kam qismi esa - bankning istalgan daromadlilik darajasiga erishish uchun mo'ljallangan (boshqa omillarning o'zgarmasligi holatida). Likvid mablag'larning hajmi xususidagi boshqaruv bilan bog'liq qarorlar boshqa xizmat turlari va bankning boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatidan ajratilgan holda qaralmasligi kerak. Likvidlikning optimal darajasini ta'minlash bankni boshqarishning doimiy maqsadlaridan bo'lib, u barcha holatlarda bank daromadlilikini oshirishga qaratilgandir.

Shunday qilib, tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hisobi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida erishilgan taklif va tavsiyalarimiz tijorat banklarida ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga imkon qadar muvofiqlashtirishga va ularning faoliyatini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2001.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonuni.-T.: 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1995y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 14 dekabrda R-3539-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat Dasturi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida"gi Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 aprelda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1317- sonli Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatgichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438 sonli Qarori

10. “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta’minlashga oid qo‘shimcha chor-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4057-sonli Farmoni. –T.: 28.11.2008y.

II. Prezident asarlari

11. O‘zR Prezidenti I.Karimovning 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi: 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2012 yil 19 yanvar, № 28 (4438).

12. O‘zR Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi, 2011 yil 22 yanvar, № 16 (5183).

13. Karimov I. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: “O‘zbekiston”. 2009y. -56-bet

14. Karimov I.A.Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo‘lishi darkor. Xalq so‘zi, 2006 yil 25 fevral.

III. Sohaga oid me‘yoriy hujjatlar

15. O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma. O‘zR AVda 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

16. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo‘riqnoma. [Yangi tahrir]. O‘zR AVda 2008 yil 27 iyunda 1831-son bilan ro‘yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 17 maydagi 12/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

17. O'zbekiston Respublikasi banklarida KBTEBning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 15.07.2005 yilda 1496-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).
18. "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi" Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 13.12.2004 yilda 1122-2-son bilan ro'yxatga olingan. (yangi tahriri).
19. "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risida" nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.01.2004 yilda 1297-son bilan ro'yxatga olingan.
20. "O'zbekiston Respublikasida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 17.12.2004 yilda 1134-son bilan ro'yxatga olingan. (yangi tahriri).
21. "O'zbekiston Respublikasida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.01.2003 yilda 1199-son bilan ro'yxatga olingan.
22. O'zRMB naqd chet el valyutasiga oid operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 15.04.2004 yilda 957-1-son bilan ro'yxatga olingan.
23. Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 17.12.2004 yilda 1435-son bilan ro'yxatga olingan.
24. Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 30.01.2004 yilda 1306-son bilan ro'yxatga olingan.
25. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisob varaqlari rejasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 13.08.2004 yilda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan (yangi tahriri).
26. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom. 02.10.2004.

27. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 28.03.2003 yilda 662-3-son bilan ro'yxatga olingan.
28. Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisobotlari to'g'risidagi Nizom. 19.07.2003 y.
29. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalariga doir qonunchilik hujjatlari to'plami. –O'zbekiston, 2003.
30. Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 03.08.2000 yilda 953-son bilan ro'yxatga olingan.
31. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 20.07.1999 yilda 776-son bilan ro'yxatga olingan.

IV. Asosiy adabiyotlar

32. Jumaev N., Abduraxmonov Q, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablar va uni bartaraf etish muammolari.-T.: "Akademnashr", 2011, 156 bet.
33. Abduvaxidov F.T. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti. 2010. 242 bet.
34. Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 86 b.
35. Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. – М.: ФОРУМ, 2010. – 192 s.
36. Ермаков. S.L. Основы организационной деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: KNORYS, 2009 – 656s.
37. Endovіckий D.A. Учет ценных бумаг: Учебное пособ. - 2-е изд ster.- М.: KNORYS, 2009.- 336 s.
38. Boronin B.П. i dr. Учет ценных бумаг: учебное пособие. – М.: KNORYS, 2009. – 336 s.

39. Bankovskoe delo: Ucheb. / Pod red. G. Beloglazovoy, L. Krolivetskoй - СПб: Питер, 2008. - 400s.
40. Konstantinova E.P. Mejdynarodnye standarty finansovoy otchetnosti: Ucheb. posob. – M.: «Dashkov i K », 2008. – 288 s.
41. Kursov B.N. Buxgalterskiy uchët v kommercheskom banke. -Moskva.: 2008, str. 209
42. Myrugova I.A. Operatsionnaya tekhnika i uchët v bankax. Uchebnyy posobie. –T.: TFI, 2008. -36 str
43. Usatova L.B., Seroshin M.S. Buxgalterskiy uchët v kommercheskix bankax. - Moskva.: 2007, str. 399.
44. Usatova L. B., Seroshtan M. S, Arskaya E. B. Buxgalterskiy uchët v kommercheskix bankax: Ucheb. posob. — 3-e izd., pererab. i dop. — M.: «Dashkov i K°», 2007. — 404 s.
45. Mochenko N.P. Mejdynarodnye standarty ucheta i finansovoy otchetnosti: Ucheb. posobie. - M.: Finansy i statistika, 2007. - 272 s.
46. SHpakov L. B., Barylina E. B. Buxgalterskiy uchët kak polzovatsya MFSO. «Альфа-Press». –M.: 2006. -37 s
47. Marenkov N.L. Mejdynarodnye standarty buhgalterskogo ucheta, finansovoy otchetnosti i aydita v Rossiyskix firmakh. - M.: Editorial YRSS, 2005. - 143 s.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

48. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010.
49. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va

ma'naviy-ma'rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. - 148 bet.

50. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 bet.

51. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: “Iqtisodiyot” 2010.

52. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. - 120 b.

53. Подольский В.И., Савин А.А. Аудит: учебник. – М.: Юрайт, 2010.–605s.

54. Двадцать вторые международные Плехановские чтения. Тезисы докладов. – Москва.: 2009, 10 апреля 2009г

55. Мерцалова А.И. Учет операционная деятельность в кредитных организациях: кассовые, расчетные, депозитные і кредитные операции: учебное пособ.- М.:KNORYS, 2009.- 356 s.

56. Jarkovskaya. E.П. Bankovskoe delo: Учеб. - М: «OMEGA -L»,2008 – 476 s.

57. Кырсов В.Н., Яковлев Г.А. Бухгалтерский учет в коммерческом банке: Новые типовые бухгалтерские проводки операций банка: Учеб. пособ. — 10-е изд., испр. і доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. — 277 s.

58. Черкасов В.К. Финансовый анализ в коммерческом банке. Учебное пособие для вузов. - М.: Изд. «Konsaltbankir», 2006. - 320 s.

59. Umarov Z. Tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi va tahlilining nazariy-uslubiy masalalari. –T.: O’zR Bank-moliya akademiyasi. nom. diss. 2010. -132 bet
60. Muqumov Z. Innovatsion faoliyat xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. –T.: O’zR Bank-moliya akademiyasi. nom. diss. 2010. -143 bet
61. O’zRda iqtisodiy tahlil va auditning rivojlanish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.-T.: TDIU nashriyoti. 20011y.
62. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji, istiqbollari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. And MII “Andijon” 2011.
63. Mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: Bank moliya akademiyasi. Moliya nashriyoti. 2010y.

VI. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

64. «O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. –T.: 2007-2012 yillar
65. «Bozor, pul va kredit» jurnal. –T.: 2007-2012 yillar
66. O’zbekistonning 2010 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko’rsatkichlari. –T.: O’zbekiston, 2011.

VII. Internet saytlari.

67. www.bankclub.ru/rankings-bk.htm Po aktivam
68. www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm Po kapitalu
69. «Norma” 2012.“Pravo” 2012.

